

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

“Himoyaga ruxsat etilsin”
Tarix fakulteti dekani
_____t.f.n. V.Ishquvvatov
2014 yil «_____»_____

5141500 – Tarix fakulteti “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi”
bakalavriat ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Raxmonov Murodjon Valijonovichning

**“Taraqqiyot va hozirgi dunyoning mafkuraviy manzarasini o‘rga-nishning
dolzarb muammolari”**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: “Milliy g‘oya va
ma’naviyat asoslari” kafedrası katta
o‘qituvchisi _____
c .f.n. X.Jumaniyozov

“Himoyaga tavsiya etilsin”
“Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari”
kafedrası mudiri_____f.f.n.M.A. Sobirova
2014 yil “_____” _____

Toshkent – 2014

Mundarija

KIRISH.

I-BOB. TARAQQIYOT VA JAHONDAGI MAFKURAVIY-G'OYaVIY JARAYoNLARNI TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.

- 1.1. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi: geopolitik maqsadlar va mafkuraviy siyosat.
- 1.2. Zamonaviy jahon siyosati rivojlanishining asosiy tendentsiyalari va mafkuraviy tazyiqlar.

II-BOB. DUNYONING MAFKURAVIY MANZARASI VA G'OYaVIY QARAMA-QARSHILIKNING NAMOYoN BO'LISH XUSUSIYatLARI.

- 2.1. Jaxon maydonlarini mafkuraviy bo'lib olishga urinishlar va bu jarayonning asosiy yo'nalishlari.
- 2.2. Mintaqaviy mojarolar va uning davlatlararo munosabatlarga ta'siri.
- 2.3. Diniy ekstremizm va fundamentalizmning mintaqaviy xavfsizlikka tahdidi.

III-BOB. O'QUVCHI YOSHLARDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI OGOHLIK TUYG'ULARINI TARBIYALASH VAZIFALAR.

- 3.1. Taraqqiyot va hozirgi dunyoning mafkuraviy manzarasini o'rganishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish.
- 3.2. Mavzusi yuzasidan dars ishlanmasi

XULOSA.

FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR RO'YXATI.

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi. Yangi ming yillik arafasida ikki qarama-qarshi mafkuraviy tuzumning kurashi intihosiga yetsada, dunyo ko'pchilik kutganidek osoyishta bo'lib qolgani yo'q. Unda o'z yechimini kutayotgan muammolar talaygina ekan: bir qator mamlakatlarda yangi demokratik qadriyatlar qiyinchiliklar bilan qaror topmoqda; milliy o'zlikning anglashning faollashuvi; etnik ziddiyatlar; diniy qadriyatlarning qayta qaror topish jarayoni bilan bog'liq masalalar.

Ushbu muammolar o'tmishda qolib ketmasdan shakllantirilayotgan yangi dunyo andozalarini ishlab chiqish jarayoniga to'siq bo'lib ham qolmoqda. Mana shunday sharoitda turli kurash va musobaqalardan toygan insoniyat yangi hayotni barpo etishga kirishdi. Bu jarayonlarni tahlil etar ekan Prezidentimiz shunday masalani ilgari suradi: «XXI asr O'zbekiston aholisi uchun qanday keladi? Kishilar turmushi kechagidan qanchalik yaxshiroq bo'ladi? O'zimiz uchun tanlab olgan islohotlar va yangilanish yo'li o'ta murakkab yo'l ekanligini anglayapmizmi? Bu yo'lda qanday muammolar, qiyinchiliklar, sinovlarga duch kelishimiz mumkinligini yetarli darajada aniq tasavvur qilyapmizmi?»¹

Totalitar tuzum yemirilganidan keyin dunyoning qutblarga bo'linishi barham topdi. Keyingi yillarda butun dunyo miqyosida va mintaqalar darajasida vujudga kelayotgan tashqi munosabatlarni tanqidiy tahlil qilish va eng avvalo:

bir qancha mamlakatlarda keskin siyosiy kurash borayotgan bir vaqtda demokratiya asoslarining ba'zan qiyinchilik bilan qaror topish jarayonlarini tahlil qilish;

milliy o'zlikni anglashning faol jonlanishi hamda millatlar va ayrim elatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashga intilishi;

etnik va millatlararo ziddiyatlarning saqlanib qolayotganligi;

qotib qolgan mafkuraviy aqidalarning qadsizlanishi hamda siyosiy va diniy ekstremizmning turli shakllari kuchayib borayotganligi;

dunyoning katta qismida iqtisodi zaif, aholisi qashshoq yashayotgan mamlakatlar saqlanib qolayotganligi;

mamlakatlar, xalqlar o'rtasida, bir mamlakat ichida esa ayrim ijtimoiy guruhlar o'rtasida iqtisodiy va ijtimoiy tabaqalanish kuchayib borayotganligi - bularning barchasi dunyo hali ham avvalgidek mo'rt bo'lib turganligi va avaylab munosabatda bo'lishni talab qilayotganligidan

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston-1997. 4-b

dalolat beradi. Bizni qurshab turgan olam g'oyat murakkab va muammoli bo'lib keldi, shunday bo'lib qolmoqda va yaqin istiqbolda ham shunday bo'lib qolajak.¹

Bugungi kunda umumiy xavfsizlikni ta'minlash va muvozanatga erishish manfaatlari nuqtai nazaridan, yangi mustaqil davlatlarning xavfsizligi va barqaror rivojlanish muammolari ulkan ahamiyat kasb etmoqda. Yer yuzida vaziyat va kuchlar nisbati shiddatli o'zgarib bormoqda. Yangi mustaqil davlatlar maydonga chiqmoqda. Bu esa hozirgi kunda davlatlar va xalqlarning barqarorligini ta'minlash uchun yangicha yondashuvlarni izlab topishni, XXI asr arafasida xavfsizlikning yangicha modellarini ishlab chiqishni tobora qattiq talab qilmoqda.

Yaqin tarixning mantiqi bizni hozirgi kunda uchta asosiy savolga murojaat qilishga undamoqda. O'zbekistonning kelajagi ana shu savollarga qanday javob berishimizga bog'liq. Bular quyidagilardir: xavfsizlikni qanday saqlab qolish lozim? Barqarorlikni qanday ta'minlash darkor? Taraqqiyot yo'lidan sobitqadam rivojlanishga nimalar hisobiga erishish mumkin? Dunyoda g'oyaviy qarama-qarshilik avj olayotgan bir paytda xavfdan qanday xoli bo'lish mumkin? Rivojlanish uchun kuch-madadni qaerdan izlash lozim? Bular strategik muammolar bo'lib, har qanday mustaqil davlat, eng avvalo ana shu muammolarga e'tibor berib kelgan va bundan buyon ham e'tibor berajak.

Bugun O'zbekiston - faqat juda boy tabiiy-xom ashyo zaxiralari, cheksiz bozor va sarmoya sarflanadigan sohagina emas. Ayni chog'da mamlakatimiz g'oyat ulkan aql-zakovat, ma'naviy va madaniy imkoniyatlarga ega.

Jahondagi geosiyosiy kuchlar kuchlar nisbati ko'p jihatdan Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar qaysi yo'ldan borishlariga bog'liq. Hozir xalqaro munosabatlarning sifat jihatidan yangicha tartibini shakllantirish jarayonida ishtirok etayotganlar buni e'tirof etmasliklari mumkin emas. Hech shubha yo'qki, bu davlatlarning tanlab olgan yo'li islom dunyosida yuz berayotgan murakkab jarayonlarning rivojlanishi qanday natijalarga olib kelishiga va umuman jahon hamjamiyati uchun kelib chiqadigan barcha oqibatlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ana shuni tushunish O'zbekiston Respublikasining va butun Markaziy Osiyoning XXI asr bo'sag'asidagi taqdiri va rivojlanish istiqbollari haqida yuritilayotgan hamma fikr-mulohazalarning tayanch nuqtasi bo'lib qolishi kerak. Bunday farazlar va tahliliy materiallarning har qaysisi, albatta, hurmat bilan munosabatda bo'lishga sazovor. Bir narsa ravshanki, barqarorlik va jo'g'rofiy-siyosiy muvozanat saqlanib qolgan sharoitdagina bu mintaqa jo'shqin va sobitqadam rivojlanadi, jahon hamjamiyati uchun munosib sherik bo'la oladi. Markaziy Osiyo mintaqasida turli siyosiy, iqtisodiy, harbiy, transportga va ekologiyaga oid muammolar to'planib qolgan. SHuni nazarda tutadigan bo'lsak, butun mintaqaning sobitqadam va barqaror

¹ Qarang. O'sha asar. 4-5 b

rivojlanishini ta'minlash hamda mojaroli vaziyatlarning oldini olish uchun hozirgi kunda ichki va tashqi muvozanatni saqlash va qo'llab-quvvatlashgina birdan-bir maqbul tamoyildir. Mintaqada jo'g'rofiy-siyosiy muvozanatni va barqarorlikni saqlagan taqdirdagina mazkur muammolarni hal etish imkoni tug'iladi. Bu esa, o'z navbatida, yalpi xavfsizlikni ta'minlash muammolarini hal qilishga qo'shilgan salmoqli hissa bo'ladi.

Mavzuning ilmiy o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonning jahon siyosatida tutgan o'rni, xalqaro maydondagi geosiyosiy manfaatlari, dunyoda g'oyaviy qarama-qarshiliklar avj olayotgan bir paytda ichki va tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari mustaqillik yillarida keng qamrovli o'rganila boshlandi. Uning ilmiy-nazariy va metodologik muammolari mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning asarlari va ma'ruzalarida bayon etilgan¹.

Ushbu muammoni R.Z.Jumaev, B.Iminov, P.Makkamboev, M.Lafasov, SH.Paxrutdinov, F.Tolipov, U.Ubaydullayev, N. Umarova, S.S.Safoev, A.O.Fayzullayev, T. Fayzullayev, I.Ergashev, B. Xo'janov, S. Sharapovalar² O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari geosiyosatidagi o'ziga xos tutgan o'rnini ijtimoiy-siyosiy boshqaruv hamda xavfsizlik nuqtai-nazardan tahlil qilganlar.

Tadqiqot ob'ekti. O'zbekistonning jahon siyosatida tutgan o'rni, xalqaro maydondagi geosiyosiy manfaatlari, dunyoda g'oyaviy qarama-qarshiliklar avj olayotgan bir paytda. ichki va tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari, ikki qutbli dunyoning barham topganidan keyingi jarayonlar, dunyoning mafkuraviy jihatdan bo'lib olishga intilishlar, ularni tahlil etish, ta'lim-tarbiya jarayonida yoshlarda ogohlik ko'nikmalarini shakllantirish jarayonlari mazkur tadqiqot ob'ekti bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti. O'zbekiston respublikasi tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari, xavfsizlik to'g'risidagi doktrina, I.Karimovning Markaziy Osiyo va jahon miqyosidagi sodir etilayotgan geosiyosiy kurashlar, undan ko'zlangan maqsadlar va unga qarshi kurash uslublari o'z aksini topgan qator asarlari, shuningdek ushbu masalaga bag'ishlangan yetakchi olimlarimizning asarlari, monografiyalari, maqolalari tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. O'zbekistonning jahon siyosatida tutgan o'rni, xalqaro maydondagi geosiyosiy manfaatlari, dunyoda g'oyaviy qarama-qarshiliklar avj olayotgan bir paytda. ichki va tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari, ikki qutbli dunyoning barham topganidan keyingi

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997. -360 b. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: O'zbekiston, 2001. -86 b. Markaziy Osiyo-yadro qurolidan xoli zona. // Xalqaro konferentsiyasida so'zlagan nutqida 1997 yil 15 sentyabr, Rossiya Federatsiyasiga qilgan tashriflari. 2001 yil 4 may, 2004 yil 15-16 aprel.

² Iminov B. Manfaatlar va siyosat. -T.: O'zbekiston, 1993. Jumaev R. Politicheskaya sistema Respubliki Uzbekistan: stanovlenie i razvitie.- T.: Fan, 1996. Paxrutdinov SH.I. Tahdid xalokatli kuch. (maqola va ma'ruzalar to'plami). T.: Akademiya, 2001. Safoev. S.S. Markaziy Osiyodagi geosiyosat.-T.: JIDU, 2005. -B.160.

jarayonlar, dunyoning mafkuraviy jihatdan bo'lib olishga intilishlar va undan ko'zlangan maqsadlarni yoritish.

Tadqiqot ishining vazifalari. Globalizatsiya va jaxon mafkuraviy manzarasining o'zgarishi, XXI asr bo'sag'asida geosiyosiy maqsad va ustivor yo'nalishlarning o'zgarishi, mustaqillikka erishgan davlatlarga mafkuraviy tazyiqlar, xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari, mintaqaviy mojarolar, diniy ekstremizm va fundamentalizm, buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik, keng ko'lamli o'zgarishlar va hamkorlik kafolatlari bilan bog'liq masalalarni tahlil etishdan iborat.

Mavzuning nazariy va metodologik asoslari. Tadqiqotning nazariy asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida mustaqillik davrida tinchilik asrashga bag'ishlangan asarlari, nutqlari, undagi Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan g'oyalari, Markaziy Osiyoning geosiyosiy manzarasi bilan boqliq qarashlari, shuningdek respublikamiz yetakchi olimlarining bir qator asar va maqolalari kabi manbalar bitiruv malakaiv yishiga asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- globalizatsiya va jaxon mafkuraviy manzarasining o'zgarishlarini tahlil etildi;
- XXI asr bo'sag'asida geosiyosiy maqsad va ustivor yo'nalishlari tahlil etildi;
- mustaqillikka erishgan davlatlarga sodir etilayotgan mafkuraviy tazyiqlar aniqlandi;
- xavfsizlikka tahdid va barqarorlik shartlari tahlil etildi;
- mintaqaviy mojarolar, diniy ekstremizm va fundamentalizm, buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik ko'rinishidagi kurashlar va undan ko'zlangan maqsadlar tahlil etildi;
- turli tahdidlarga qarshi kurashda jahon hamjamiyati bilan hamkorlik kurashish va uning ahamiyati tahlil etildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. To'plangan tajriba, taklif va xulosalardan birinchi navbatda milliy g'oya, mafkura, milliy ma'naviyat, geosiyosat, xavfsizlik, yoshlarni milliy va umumionsiny va milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, yoshlarda vatanparvarlik, millatparvarlik ruhini tarbiyalash masalalari bilan shug'ullanayotgan tadqiqotchilar o'z ilmiy izlanishlarida keng foydalanishlari mumkin. O'rta ta'lim maktablari, Akademik litsey va Kasb-hunar kollejlarida "Odobnoma", "Milliy g'oya", "Ma'naviyat asoslari" fanlaridan mashg'ulot olib boruvchi pedagoglar tegishli mavzularda keng foydalanishlari. Shuningdek Ma'naviyat-ma'rifat uyushmalari, "Kamolot" singari tashkilotlar o'z faoliyatlarini olib borishlarida tadqiqot materiallaridan foydalanishlari mumkin.

Ilmiy tadqiqotning o'rganishda foydalaniladigan metodlar. Ushbu tadqiqotda tarixiylik va mantiqiylik, umulashtirish, mavhumlashtirish, analiz va sintez, qiyosiy taqqoslash kabi umumfalsafiy uslublardan keng foydalanildi

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi: Tadqiqot ishi kirish, ikkita bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I-BOB. JAHONDAGI MAFKURAVIY-G'OYaVIY JARAYoNLARNI TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.

1.1. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi: geopolitik maqsadlar va mafkuraviy siyosat.

Xozirgi davr - dunyoda g'oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo'lib borayotgan davrdir. Dunyoning hududiy jihatdan turli mintaqa va qit'alarga bo'linishini geografiya darslaridan yaxshi bilamiz. Jahonning siyosiy xartasiga qarab va mavjud davlatlarning chegaralarini hisobga olgan holda ham Yer yuzining hududiy bo'linishini bemalol tasavvur qila olamiz.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek bugun biz tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi va jurnalistlar bu davrni turlicha ta'riflab, har xil nomlar bilan atamoqda. Kimdir uni

yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana biron yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamogda.

“Globallashuv” tushunchasi ilmiy, ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarga o’tgan asrning 80-yillarida kirib kelgan edi. Uning qo’llanilishiga jahon mamlakatlari iqtisodiy hayotining o’zaro bog’liqligining shiddat bilan kuchayib borganligi asosiy sabab bo’lgan edi. Bugungi kunga kelib ham mamlakatlarning iqtisodiy aloqalarini riivojlantirish va mustaxkamlash ularning iqtisodiy taraqqiyotining muhim imkoniyati bo’lib qolmoqda. Lekin bugungi kunga kelib, mamlakatlarning o’zaro iqtisodiy aloqalari yanada kenegayib, faqat iqtisodiyot bilan cheklanmasdan balki, mamlakatlar va millatlar hayotlarining barcha sohalarini o’ziga qamrab olmoqda. Atrofimizda turli xil tahdidlar yuz bermoqda. Prezidentimiz «..ma’naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o’z-o’zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog’lom avlod kelajagini ta’minlash yo’lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibat jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin»¹. Xalqni ichdan ma’naviy va g’oyaviy aynitishga qaratilgan bunday xatti- harakatlarga jiddiy va printsiptial munosabatda bo’lmog’imiz kerak.

Mazkur mavzu uchun Prezidentimizning “O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asari asosiy manba bo’lib hisoblanadi. Ana shu sababdan ham ma’ruzachi o’z darsining boshlanishida mazkur asarda Karimov I.A. tomonidan ko’rsatib berilgan xavfsizlikka tahdidlar, ularning umumbashariy va mintaqaviy xususiyatlariga alohida to’xtalishi lozim. Ana shu tahdidlar orasida mintaqaviy jixatning ahamiyati tushuntirilgandan so’ng mavzuni yoritish osonlashadi.

“Geosiyosat” tushunchasi o’zida (“geo”-“er”, “siyosat” esa-“davlat” va “ijtimoiy ish”) ma’nolarini anglatadi. “Geosiyosat” atamasida geosiyosiy muddaolar, ularning ko’rinishlari, turli xil davlat va xalqlarning manfaatlar tizimi, unga bo’lgan yondashuv uslublari, vositalari u yoki bu davlatning hududiy joylashuvi, salohiyatiga bo’lgan munosabatda ifodalangan maqsadlar o’z ifodasini topadi.

“Geosiyosat” uzoq tarixga ega bo’lsada, u tushuncha sifatida XX asrning boshlarida shakllangan. Bu atama R.Chellen tomonidan muomalaga kiritilgan bo’lib, hozirgi davrda davlatlar va dunyo mamlakatlari xalqaro siyosatida, falsafada, siyosat falsafasi va fanlarida keng qo’llanilmoqda. Geosiyosat ko’p qirrali tushuncha sifatida turli manfaatlarni o’zida mujassam etadi.

Hozirgi davrda geosiyosiy maqsadlar ko’proq mafkuraviy siyosat bilan hamohangligini alohida ta’kidlash zarur. Bunda mafkuraviy ta’sir ko’rsatish geosiyosatning eng ta’sirchan vositasi sifatida namoyon bo’lmoqda. Ya’ni turli davlatlarning maqsadlari xalqning turli qatlamlari, xususan yoshlar ongi va qalbiga mafkuraviy ta’sir ko’rsatish orqali, ularning faoliyatini o’z ta’siriga, ya’ni

¹ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. T., 2008. 12 b

manfaatlariga yo'naltirilgan mafkuraviy muhitni yaratishni ko'zlagan holda amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonni to'g'ridan-to'g'ri ko'rish, uning qanday amalga oshishini aniq bilish qiyin va murakkabdir. Ana shu sababdan ham Prezidentimiz mafkuraviy poligonlar yadro poligonlariga qaraganda xavfliroq bo'lib qolganligini alohida ta'kidlaganlar.

Yadro poligonlarini qaerda joylashganini, uning quvvatini, qanday maqsadga yo'nalganligini muayyan darajada aniq bilish mumkin. Ammo, yovuz, yot mafkuraviy maqsadlarni qaerdan va qanday yo'llar bilan va qaysi insonlar qalbini egallab olayotganligini osonlikcha bilib bo'lmaydi.

Bugun "ikki qutbli mafkura" o'rtasidagi kurashga barham berilgan bo'lsada, ammo dunyoda mafkuraviy kurashlar to'xtab qolgani yo'q. Aksincha, jahon maydonlarini mafkuraviy bo'lib olishga urinishlar turli yo'llar bilan sodir bo'lmoqda. Masalan, O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritganidan keyin mafkura sohasida hayot osonlikcha kechmadi. Milliy istiqlol g'oyasiga zid bo'lgan yot va begona g'oyalar kirib kelishga va yoshlarimiz ongini egallashga, ularni mamlakatimizda belgilangan ulug' maqsadlarni amalga oshirishga qarama-qarshi qo'yishga urinishlar bo'lganligining guvohimiz. Bunday harakatlarning tarafdorlari o'zlarini "do'st", "millatdosh", "vatandosh", "dindosh" etib ko'rsatish niqobi bilan o'z g'oyalarini amalga oshirishga urindilar. Natijada, xaqiqiy qadriyatlarimizga zid bo'lgan turli xil oqimlar aholi, ayniqsa yoshlar ongini egallashga xarakat qildi.

Jahon geosiyosatida xalqlarni ma'naviy-mafkuraviy jihatdan tobe etishga intilish va bugungi kunda dunyoni shunday asosda bo'lib olishga urinishlar davom etmoqda. Buning uchun ular zozirgi zamon ommaviy axborot vositalari, ularning yutuqlaridan, hamda turli xil markazlar, ayni paytda o'zaro hamkorlikka yo'naltirilgan ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy vositalardan foydalanish orqali dunyoning turli hududlarida o'zlariga mos mafkuraviy muhitni shakllantirish maqsadlarini ham ko'zlamoqdalar.

Ana shunday sharoitda milliy istiqlol g'oyasini chuqur egallash orqaligina bunday mafkuraviy maydonlarda olib borilayotgan kurashlar mohiyatini to'g'ri tushunish va oldini olish mumkin. Mafkuraviy jarayonlar fikr va g'oyalar tizimi sifatida inson ongiga yo'naltirilganligi, o'ziga xos maqsadlari borligi bilan xarakterlanadi. Ular ko'plab odamlar qalbi va ongini egallab olish orqali o'ziga xos ta'sir ko'rsatish maydonini yaratadi. Bu maydon ichida turli xalqlar, insonlar faoliyati mujassamlashadi.

Ma'rifiy rivojlanish va dunyo xalqlari rivoji shuni taqozo etadiki, geosiyosat ham ma'lum bir maqsadlarni ko'zlar ekan, u faqat insoniyat orzu qilib kelgan tinchlik va barqarorlikka, mamlakatlar va xalqlar ravnaqiga, erkin va farovon hayot qurish g'oyasiga mos bo'lishi kerak. U Vatan ravnaqi, Yurt tinchligi, Xalq farovonligi, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik g'oyalarini o'zida mujassam etib, hozirgi geosiyosiy maqsadlarning bosh mezoniga aylanib borishi lozim. U nosog'lom mafkura va g'oyalarni boshqa xalqlar ongiga,

qalbiga singdirib, mafkuraviy jihatdan dunyoni bo'lib olishga emas, o'zaro manfaatli hamkorlikka, dunyoviy muammolarni o'zro hamjihatlik bilan hal etishga xizmat qilishi kerak. Shu ma'noda, geosiyosatga yangicha yondoshuv XXI asrda yangicha ma'no va ahamiyat kasb etadi va dunyo taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Darxaqiqat, tsivilizatsiyaga yaxlitlik ato etib turgan asosni topish amrimaxol. Biroq masalaning bir jixati aniq: xar qanday tsivilizatsiyaning markazida inson turadi. Shunday ekan, unga yaxlitlik baxsh etayotgan asosni xam insoniylik me'yoridan izlamoq zarur. Aynan ana shu insoniylik me'yori XX asrning to'qsoninchi yillariga kelib umumsayyoraviy tsivilizatsiyaning shakllanishiga va unga eltuvchi globalizatsiya jarayonining yuz tutishiga sabab bo'ldi.

Ushbu insoniylik me'yorini, bizning fikrimizcha, funktsional zaruriyatdan izlamoq darkor. Boshqacha aytadigan bo'lsak, XX asrning oxirgi o'n yilligiga kelib, insoniyat o'z taraqqiyotining shunday bir bosqichiga qadam qo'ydi, bu bosqichda kishilik jamiyatining turli bo'laklarini yagona funktsiyani bajaruvchi organizmga (ya'ni umumsayyoraviy tsivilizatsiyaga) birlashtirish zaruriyati tug'ildi. Turli mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy xamkorlikni yo'lga qo'yish extiyoji, siyosat yuritishning umume'tirof etilgan printsiplarini ishlab chiqishga intilish, inson xuquqlari va erkinliklarining umumjaxon Deklaratsiyasini imzolash borasidagi sa'y-xarakatlar, umumbashariy muammolarni xamkorlikda hal etishga urinish, informatsiya almashinishga bo'lgan extiyojning o'sib borishi – bularning barchasi biz yuqorida eslatib o'tgan funktsional zaruriyatning ko'rinishlaridir.

Umumsayyoraviy tsivilizatsiyani shakllantirish zaruriyatining ko'rinishlari xaqida chuqurroq fikr yuritsak, bir muxim xulosaga kelamiz: globalizatsiya jarayoni tezlashib borayotgan bir vaziyatda o'z g'oyalari, manfaatlari va turmush tarzini boshqa xalqlarga singdira olgan mamlakatgina iqtisodiy yuksalish uchun zamin yaratadi, o'z siyosiy qadriyatlarini jaxon xamjamiyati tomonidan tan olinishiga erishadi, o'zi e'tirof etgan xuquq va erkinliklarning umumbashariy xarakter kasb etishini ta'minlaydi, o'z milliy xavfsizligi va barqarorligini mustaxkamlaydi. Shu boisdan XX asrning to'qsoninchi yillarida globalizatsiya jarayonining kuchayishi turli mamlakatlar geosiyosatining maqsadlari va ustivor yo'nalishlarini xam o'zgartirib yubordi.

Yuqoridagi muloxazalardan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Yigirmanchi asrda fan va texnika taraqqiyoti yangi bosqichga qadam qo'ydi. Xususan, ilmiy bilimlar xajmi va diapazoni kengaydi, fan va texnika qudratli ishlab chiqaruvchi kuchga aylandi.
2. Fan va texnikaning ishlab chiqaruvchi kuchga aylanishi ilmiy-tadqiqotlardan manfaatdorlikni oshirib yubordi. Natijada turli mamlakatlarning xukumatlari, turli kontsern va korporatsiyalar tomonidan tadqiqotlarga ajratilgan mablag'lar miqdori oshib bordi. Boz ustiga, tadqiqotlarning natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish sur'ati xam tezlashib ketdi.
3. Fan va texnikaning qudratli taraqqiyoti iqtisodiyot negizida umumsayyoraviy tsivilizatsiyaning shakllanashi tendentsiyasini vujudga keltirdiki, uni globalizatsiya jarayoni deb atash odat bo'ldi.

Umumsayyoraviy tsivilizatsiyaning shakllanishi funktsional zaruriyat bilan bog'liq bo'lgani bois, globalizatsiya jarayonining tezlashuvi ana shu zaruriyatga mos geosiyosat maqsad va ustivor yo'nalishlarini ishlab chiqish extiyojini vujudga keltirdi.

1.2. Zamonaviy jahon siyosati rivojlanishining asosiy tendentsiyalari va mafkuraviy tazyiqlar

Umuman aytganda tarixda ko'rish mumkin bo'lgan xalqaro tartibot turlari ikki mumtoz model orasida bo'ladi: «urush holati», «ishonchsiz tinchlik» yoki «rioya qilinmaydigan tartibot» modellari.

Birinchi modelga ko'ra xalqaro munosabatlarning mohiyati urush va unga tayyorgarlik hisoblanadi, ikkinchi modelga binoan esa xalqaro munosabatlar eng kam miqdordagi tartibotni bo'lishini kafolatlashga qodir bo'lgan kuchlar mavjud muhit sifatida qaraladi. Har ikkala model ham o'z davriga xos voqeliklarni o'zida aks ettiradi, ma'lum ma'noda esa hozirgi kunga ham mos keladi. Hozirgi kunda dunyo hamjamiyati rivojlanishida ikki qutbga asoslangan tartibot o'z umrini yashab bo'lgan va keyingi dunyoviy tartibot qanday ko'rinishga ega bo'lishi xaqida yakdil bir to'xtamga kelinmaganligini qayd etish mumkin. Ba'zi tadqiqotchilar tomonidan dunyo bir qutbli tartibot sari rivojlanmoqda degan fikr ilgari surilayotgan bo'lsa, boshqalar ko'p qutbli dunyo tartibotiga qarab borilmoqda degan fikrga egalar, yana ba'zilar umuman boshqacha kelajakni bashorat qilishmoqda.

Sovuq urush davridan keyingi dunyoning qanday yo'sinda rivojlanayotganligi va kelajakda qanday ko'rinish olishi yuzasidan tadqiqotchilar o'rtasida turlicha fikrlarning mavjudligini qo'yidagi mualliflarga murojaat qilganda yaqqol guvohi bo'lamiz. Ulardan biri, rus geosiyosatchisi A. Duginning fikriga ko'ra, «hozirgi paytda dunyoda borayotgan globallashuv jarayonida biz amerikacha jamiyatdan nusxa olingan tsivilizatsion modelni boshqa davlatlarga ularning hohishidan qat'iy nazar tiqishtirish va o'rnatishni ko'rmoqdamiz»¹.

AQSH lik olim F.Fukuyama «Tarix yakuni» asarida butun dunyoda qutblararo qarama-qarshilik barham topib, dunyo endi yagona qadriyatlar bo'yicha rivojlanadi, bu qadriyatlar sifatida g'arbona qadriyatlar qabul qilinadi degan g'oyani ilgari surgan. Boshqa bir mashhur olim S. Xantington esa dunyoning kelajagi turli tsivilizatsiyalar o'rtasidagi to'qnashuvlarning kelib chiqishi bilan xarakterlanishini bashorat qilib uning g'oyasiga qaysidir ma'noda qarshi fikr bildirgan. Bir-biriga qarshi turuvchi 6 asosiy tsivilizatsiyalarga hinduizm, islom, yapon,

pravoslav, xitoy va g'arb tsivilizatsiyalarini, bularga qo'shimcha qilib esa afrika va lotin amerikasi tsivilizatsiyalarini ham kiritgan .

Keyingi paytlarda tez-tez o'zini namoyon etayotgan ba'zi jarayonlar, ya'ni turli tsivilizatsiya vakillari orasidagi o'zligini anglash jarayonlarida, eng achinarlisi ulardan ayrimlari o'rtasida o'zlarining hozirgi paytdagi ijtimoiy-iqtisodiy nochor holatlariga boshqa tsivilizatsiyalarni aybdor deb bilishlari va ularga qarshi kurashish lozimligi to'g'risidagi g'oyalarni targ'ib qiluvchilar ham ko'plab topilmoqdaki, bunday holatlar Xantington bashoratiga ham jiddiy qarashni talab etadi. XX asr oxiri, XXI asr boshidagi jahon siyosatining o'ziga xos yana bir tendentsiyasi sifatida dunyoning turli mintaqalarida yangidan-yangi kuch markazlarining paydo bo'layotganligini va ularning kuch qudrati tobora o'sib yetakchi davlatlarga yangi raqobatchilar yetishib chiqayotganligini kiritish mumkin.

Eng e'tiborli jiyi shundaki, kishilar biror bir g'oyaga – na reformatorga, na revolyutsionerlarga – ishonmay qo'y-dilar. Ulug' dasturlar, ulug' ta'qiqlar, ulug' shiorlar endilikda ularni junbushga keltirmayotir, xayratga solmayotir. To'qsonin-chi yillar boshida eng mantiqli g'oyalar xam kishilarning befarqligi tufayli qudratli kuchga aylana olmadi.

Sotsialistik tenglik xaqidagi afsonalarning o'z kuchini yo'qotishi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning g'arbcha yo'li to'g'ri ekanligidan dalolat bermaydi. Birgina faktni tilga olaylik: dunyo bozor munosabatlari printsiplarini qabul qilayotgan bir paytda G'arbning o'zida bozor iqtisodiyoti, shakllangan siyosiy demokratiya qoidalarini tanqid qilish kuchayib bormoqda. Boz ustiga, aynan G'arb ikki bora jaxon urushini boshlab ber-ganini, totalitarizm va avtoritarizmning turli shakllarini "kashf etganini" xam unutmashimiz lozim.

Bunday ikki taraflama inqiroz, biz avvalgi paragrafda ta'kidlab o'tganimizdek, mafkuraning o'zi o'tmishga yuz tutga-nidan dalolat berayotgandek go'yo. Mafkura olamida "qora dog'" – bo'shliq vujudga keldi. Bunga asoslangan ayrim psevd-mafkurashunoslar (afsuski, ular orasida o'zbek olimlari xam talaygina) mafkuradan voz kechish davri keldi, deb xulosa chiqardilar. Go'yo pragmatik liberalizm davri yuzaga kelayot-gandek tuyuldi ularga. Biroq xaqiqat shuki, mafkura xech qachon tarix mulkiga aylanmaydi. Xar qanday jamiyat ma'naviy soxasining nazariy darajasi, ijtimoiy ongning sistema-lashtirilgan qatlami (nazariy ong) mavjud bo'lar ekan, mafkura yashayveradi. U barcha zamonlar ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot xarakteri va yo'nalishiga ta'sir ko'rsatuvchi qudrat bo'lib qolaveradi. Xo'sh, shunday ekan, bugungi kundagi maf-kuraviy beqarorlikni, kishilardagi mafkuraviy befarqlikni qanday baxolamoq kerak?

Avvalo shuni ta'kidlab o'tish zarurki, mafkuraviy beqarorlik degani aslo mafkuraviy bo'shliqni (ya'ni kishilik jamiyatida mafkuraning butunlay yo'qligini), mafkuraviy befarqlik esa aslo mafkuradan xolilikni anglatmaydi. Chunki kishilik jamiyatining biror bir ko'rinishi (nemis jamiyati, o'zbek jamiyati, yapon jamiyati) ma'lum muddat mafkuraviy bo'shliqni boshidan kechirishi mumkin, biroq kishilik jami-

yatining o'zi (yaxlit xolda) mafkurasiz bo'lishi mumkin emas. Xuddi shu kabi, kishilar yolg'ondakam, xaqiqatdan yiroq maf-kurani to'liq anglamasdan qabul qilishlari mumkin, biroq xar qanday mafkuraviy ta'sirdan tashqarida bo'la olmaydilar.

Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, birinchidan, bugungi kunda mavjud bo'lgan ko'pgina mafkuralar yaxlitlik va izchillikdan nixoyatda yiroq. Xalqaro munosabatlar xilma-xil mafkuralarga buysunganlari bois bir-biriga zid bo'lgan, yaxlitlikdan yiroq iqtisodiy, ijtimoiy- siyosiy va ma'naviy omillar yuzaga kelmoqdaki, ular jaxon taraqqiyotini tendentsiyaviylik xususiyatidan max-rum etib, tasodifiy tus bermoqda. Vaxolanki, ikki qutbli dunyo sharoitida jaxonda yuz bergan voqeaning moxiyatini (kapi-talistik yoki sotsialistik xarakterini) mafkura nuqtai naza-ridan ilg'ab olish xamirdan qil sug'urgandek oson edi. Xozirgi sharoitda esa xalqaro voqealarning asl maqsadi va moxiyatini aniqlash nixoyatda mushkul. Ayniqsa mafkuraviy xarakterga ega bo'lgan xalqaro voqealarning maqsadi va yo'nalishini aniqlash amri maxol. Shuning uchun xam O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov mafkura poligonlarini yadro poligonlariga nisbatan ko'proq kuchga egaligini ta'kidlar ekan, "agar xarbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, oldini olish mum-kin, ammo mafkuraviy tazyiq, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab olish nixoyatda qiyin", - deydi.¹

Ikkinchidan, postindustrial inqilob, urbanizatsiya, infor-matizatsiya, globalizatsiya jarayonlari foyda ketidan quvadigan, asosan moddiy manfaat va extiyojlarini qondirishga in-tiladigan lyumpenlarni² vujudga keltirdiki, bunday kishilar o'z maqsadlari yo'lida xar qanday afsona-yu g'oyani xam qo'llab-quvvatlashga qodirlar. Bunday xolat mamlakat xavfsizligiga beqiyos taxdid solishi tabiiy.

O'zbek jamiyatiga katta xavf solayotgan g'oyalardan biri shovinizmdir. Uni Prezident I.Karimov «shovinizmnu muayyan kuchlar va davlatlar tomonidan bo'ladigan siyosiy, mafkuraviy va iqtisodiy xukmronlik deb yoki millatlararo va davlatlararo, mintaqaviy munosabatlarda unga intilish deb ta'riflash mumkin».¹ Shovinizm tarafdorlari o'z millatlarining manfaat-lari va extiyojlarini xaddan ziyod ulug'laydilar, ularni boshqa millat va elatlar xisobiga bo'lsa xam qondirishni targ'ib etadilar. «Iqtisodiy imkoniyatlari zaiflashgan, ijtimoiy totuvlikka zil ketgan, ichki ziddiyatlar kuchaygan, Vatan, millat taqdiridan o'zining tor manfaatlarini ustun qo'yadigan, o'zaro kelisha olmayotgan, xokimiyatga da'vogar siyosiy guruxlarning mavjud muammolarni tashqi kuchlar yordamida xal qilishga urinishi va ma'naviy-ruxiy parokandalik, ertangi kunga ishonchsizlik tuyg'ulari xukmron bo'lgan mamlakatlar buyuk davlatchilik shovinizmi nishoniga aylanishini zamonaviy tarix xam ko'rsatib turibdi».¹

¹ Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasini xalkni – xalk, millatni – millat kilishga xizmat etsin. Adolatli jamiyat sari. – Toshkent, 1999, 6-bet.

² Lyumpen – nemischa "uvada", "juldur" suzlaridan olingan bulib, milliy va sinfiy kiyofasini yukotgan axoli tabakalarini anglatadi.

¹ Karimov I. Uzbekiston XX1 asr busagasida: xavfsizlikka taxdid, barkarorlik shartlari va tarakkiyot kafolatlari. - Toshkent, 1997, 52-bet.

¹ Milliy istiklol goyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Ukuv kullanmasi. - Toshkent, 2001, 59-bet.

Millat va elatlarning yagona totalitaristik tizim sharoitidagina farovon xayot kechira olishini targ'ib etuvchi neototalitarizm g'oyalari xam jamiyatimiz taraqqiyoti uchun katta xavf tug'dirmoqda. Chunki ushbu g'oya tarafdorlari mil-latlarni yana imperiya sharoitiga qaytarishni, yana mustaqillik qadriyatlariga panja ortidan qarashni taklif etadilar. Asrlar davomida orzu qilib kelingan mustaqillik millatimiz uchun qimmatga tushdi. Biz imperiyabozlik va totalitarizm kulfatlarini bisyor tatib ko'rdik. Shu bois o'zbek xalqi endi biror bir yangi totalitaristik tizimlarda xayot kechirishni istamaydi.

Yuqoridagi g'oyalar bilan birga qator vayronkor g'oyalar xam mavjudki, jaxondagi turli siyosiy kuchlar ularni o'zbek xal-qining ongiga singdirishga intilmoqdalar. Ibtidoga qaytish g'oyalarini targ'ib etuvchi diniy ekstremizm ana shunday g'oyalar turkumiga kiradi. U XX asming 90-yillariga kelib, ayniqsa keskin tus oldi. Ushbu g'oyaning eng daxshatli tomoni shundaki, u bugungi kunda integratsiyaga intilayotgan insoniyatni "biz-nikilar" va "begonalarga" bo'lmoqda. Aytish joizki, diniy eks-tremizm nafaqat islom, balki xristian dini g'oyalariga xam asoslanishi mumkin. Biroq islom diniy ekstremizmi o'zining murosasizligi bilan tanilgan. «U o'zining ikki xususiyati bilan ajralib turadi:

- ularning aqidalariga ko'ra, go'yo barcha xozirgi zamon mu-sulmon jamoalari islomiy tuslarini yo'qotganlar va joxiliya (islomdan avvalgi) asri jamiyatlariga aylanganlar. Bunday yondashuv xukumat va uning olib borayotgan siyosatini tanqid qilishga asos bo'lib xizmat qiladi;

- ular go'yo faqat xaqiqiy musulmonlar, ya'ni ularning o'zlari xokimiyatga kelgach, barpo bo'lajak islomiy tartibni o'r-natish uchun keskin va agressiv xarakat qilish zarur deb xisob-laydilar».¹

Islom diniy ekstremizmining eng yorqin ifodasi vaxxobiylilik bo'lib qolmoqda. Sunniylarning 1,5 foizini tashkil etuvchi va xanbaliylarga mansub bo'lgan, o'z maqsadini islom dinini asl xolatiga qaytarishdan iborat deb bilgan vax-xobiylilik aslida xokimiyat uchun kurashish yo'lida vujudga kelgan siyosiy xarakatdir. Muxammad ibn Abd al-Vaxxob g'oyaviy qarashlariga tayangan vaxxobiylar Sharq xalqlari o'rtasida nifoq solishda, ularni mustamlaka qilishda o'z "xissalarini" qo'shdilar. Musulmonchilikdan yiroq bo'lgan bu oqim taraf-dorlari 1802-1803 yillarda Rasuli akram saxobalaridan birining Jubaylidagi qabrini, Muxammad payg'ambarning na-biralari imom Xasan va imom Xusanning qabrlarini, keyinroq borib Makka va Madinadagi qabr toshlarini, xatto Rasuli akramning umr yo'ldoshi Xazrati Bibi Oysha, qizi Bibi Fotimaning qabrlarini buzib tashladilar. 1810 yilda esa Rasuli akramning masjidini vayron qilib, talab olingan bezaklarni sotib yubordilar.¹ 2001 yilda vaxxobiylarning qo'li bilan Afg'onistonda ikki ming yildan buyon saqlanib kelgan o'nlab tarixiy yodgorliklar Yer yuzidan yo'q qilib tashlandi.

Bugungi kunda jaxondagi ayrim siyosiy kuchlar o'zbek jamiyati a'zolariga millatchilik g'oyalarini singdirishga xam in-tilmoqdalar. Globalizatsiya jarayoni umuminsoniy qadriyatlar miqdorini oshirish bilan

¹ Milliy istiklol goyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Ukuv kullanmasi.-Toshkent.2001,75-bet.

¹ Yusupov E.Islomiy kadriyatlar va diniy ekstremizm.- Ijtimoiy fikr.Inson xukuklari,1998,N 3, 46-47-betlar.

birga milliy qadriyatlar, an'analar va urf-odatlariga taxdid solayotgani rost. Jaxon siyosiy ola-midagi ayrim kuchlar ushbu faktdan xam o'z g'arazli yo'llarida foydalanmoqdalar. Xokimiyat uchun kurash, siyosiy "obro'" ort-tirish maqsadida bu kuchlar millatchilik g'oyalari o'zlariga qalqon qilmoqdalar.

Diniy ekstremizm, millatchilik va ularga o'xshagan ko'plab g'oyalarning asosiy ta'sir ob'ekti endigina mustaqilligini qo'lga kiritgan mamlakatlar bo'lib qolayotganini ko'rsatib o't-dik. Chunki geosiyosatning asosiy maqsadi o'z mavqeini o'zga mintaqalarda mustaxkamlashdan va shu mintaqalarni o'z ta'siri ostiga olishdan iborat bo'lgan bir davrda jaxondagi turli siyosiy kuchlar yosh suveren davlatlarni o'z manfaatlar doirasiga kiritmoqdalar, ularning mustaqilligini zaif-lashtirish maqsadida biz tilga olgan g'oyalarni targ'ib etmoqdalar. "Mintaqada shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy, mada-niy-ma'rifiy aloqalarni izdan chiqarish, do'st va birodar davlatlar, xalqlar va millatlar o'rtasiga nizo solish, kes-kinlik o'choqlarini keltirib chiqarish uchun turli g'oyaviy, diniy va mafkuraviy vositalar ishga solinmoqda".¹ Ushbu vositalarni shartli ravishda uch yo'nalishga taalluqli topish mumkin.

1.Informatsion urush. Mustaqil mamlakatlar xududida ma'lum turmush tarzini, qadriyatlar tizimini ulug'lovchi risolalar, varaqalar, san'at asarlari, kinofilmlar, axbo-rotlar va xokazolar tarqatilmoqda. 2.Psixologik urush. Mustaqil davlatlarning axolilariga tanlangan yo'llarining noto'g'ri ekanligini singdirishga, ularni oxir-oqibatda ijtimoiy larzalar kutayotganini asoslashga intilinmoqda. 3.Texnologik urush. Mustaqil davlatlarning e'tiborini jalb etish maqsadida o'z iqtisodiy, ijtimoiy, informatsion texnologiyalarini targ'ib etishga urinilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad shuki, ushbu texnologiyalarni joriy etish bozori vujudga keltirilsa, yangi texnologiyalar bilan birga o'z taraqqiyot modelini xam singdirish, eksport qilish imkoni yaratiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, dunyo siyosiy rivojlanishining hozirgi holati, unda namoyon bo'layotgan tendentsiyalar haligacha xalqaro maydonda va xalqaro munosabatlarda davlatlarning o'zaro kelishuvlariga asoslangan xalqaro tizimning shakllanmaganligini ko'rsatmoqda. Globallashuv jarayonlari ko'p jihatdan turli xalqlar va davlatlarni bir-birlariga bog'liq tomonlarini oshirgan bo'lsada, ba'zi bir jihatlari bo'yicha ularni bir-birlariga qarama-qarshi chiqishlariga ham sabab bo'lmoqda¹. Yuz berayotgan integratsiya jarayonlari natijasida davlatlar va hatto mintaqalar ham birlashayotganligi bilan bir vaqtda ayrim hududlarda dezintegratsiya jarayonlari ham namoyon bo'lmoqda. Jahon siyosatida ayrim yetakchi davlatlar tomonidan xalqaro huquq me'rlariga, BMT Nizomida qayd etilgan tamoyillarga zid hatti-harakatlarning sodir etilishi va uning mavqeini inkor etuvchi holatlarning yuz berishi kuzatilmoqda. Ushbu muloxazarimizdan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

1.XX asrning to'qsoninchi yillariga qadar xukm surgan sotsial-reformistik g'oyalar va kommunistik utopiya o'zini oqlamagani bois XXI asr arafasida jaxonda, bir tomondan, mafkuraviy beqarorlikni,

¹ Milliy istiklol goyasi: asosiy tushunchalar va tamoyillar. – Toshkent, 2000, 26-bet.

ikkinchi tomonda esa, mafkuraviy befarqlikni vujudga keltirdi. Xususan, mafkuraviy beqaror-lik jaxonda butun-butun xalqlarni jipslashtirish imkoniga ega g'oyalarning yo'qligida namoyon bo'layotgan bo'lsa, mafkuraviy befarqlik kishilarning o'z ongi va faoliyatlarini egallayotgan g'oyaga e'tiborsizliklarida o'z ifodasini topmoqda.

2. Bunday sharoitda diniy ekstremizm, millatchilik, neoto-talitarizm, neoavtoritarizm kabi g'ayriinsoniy g'oyalar ri-vojlaniishi va tarqalishi uchun shart-sharoitlar xosil bo'l-moqdaki, undan eng avvalo endigina mustaqilligini qo'lga kiritgan mamlakatlar ayniqsa katta zarar ko'rmoqdalar. Ushbu g'oyalar turli siyosiy kuchlarning geopolitik maqsadlarini ro'yobga chiqarish maqsadida tarqatilmoqda va targ'ib etilmoqda.

3. Mustaqil davlatlarga qilinayotgan mafkuraviy tazyiq informatsion urush, texnologik urush sifatida olib boril-moqdaki, ularning asl maqsadi millatga begona turmush tarzi va qadriyatlar sistemasini singdirish, tanlagan yo'lidan ozdirish, o'z texnologiyasini joriy etish, oxir-oqibatda esa uni o'z ta'siri ostiga olishdan iborat.

II-BOB. DUNYONING MAFKURAVIY MANZARASI VA G'OYaVIY QARAMA-QARSHILIKNING NAMOYon BO'LISH XUSUSIYatLARI.

2.1. Jaxon maydonlarini mafkuraviy bo'lib olishga urinishlar va bu jarayonning asosiy yo'nalishlari.

XX asming oxirida dunyoda jahonshumul voqealar ro'y berdi. Uning siyosiy xaritasi, jumladan, Markaziy Osiyoning manzarasi tubdan o'zgarib ketdi. Sobiq SSSrning parchalanishi, uning hukmron mafkurasining barbod bo'lishi va Markaziy Osiyodagi respublikalarning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi mintaqamizda nafaqat ijtimoiy-siyosiy jihatdan, balki yangi mafkuraviy vaziyatni ham vujudga keltiradi. Ushbu vaziyatning mohiyati quyidagilardan iborat:

Birinchidan, sobiq sho'rolar xukmronligi sharoitida kommunistik mafkura, mintaqa xalqlari azaldan qon-qardosh bo'lishlariga qaramasdan, ularni zo'rma-zo'raki "birlashtirib" turgan edi.

Ikkinchidan, mintaqadagi mamlakatlar o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan bo'lishiga qaramasdan, 1991 yilgacha sobiq markaz hali o'z hukmronligini qaytadan tiklashga moyil edi. SHuning uchun ham u mintaqa mamlakatlarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yish, millatlararo ziddiyatlarni keltirib chiqarish kabi siyosatni davom ettirdi. Bu o'z navbatida, o'sha davrda, ma'lum darajada, mintaqa xalqlarining o'zaro munosabatlariga ham muayyan ta'sir ko'rsatdi.

Uchinchidan, mustaqillikni qo'lga kiritgan mintaqamiz mamlakatlarini o'z ta'sir doirasiga o'tkazish uchun yana boshqa bir qator mamlakatlar xam xarakatni boshlab yubordilar. Ularning

ko'pchiligi tashqaridan beg'araz yordam ko'rsatayotganday bo'lib ko'rinsalarda, aslida har bir ko'rsatayotgan "yordamlari" evaziga mintaqada o'z mavqeini mustahkamlashga xarakat qildilar.

To'rtinchidan, mintaqada yuzaga kelgan muammolarni hal qilishga xizmat qiluvchi yangi ma'naviy-mafkuraviy muhitni shakllantirish ehtiyoji ham oshib bordi. Mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov ta'kidlagani kabi: "SSSR parchalanib ketgandan keyin bizning irodamiz yoki intilishimizga bog'liq bo'lmagan holda O'zbekiston amalda front yaqinidagi davlatga aylanib qoldi. Uning tashqi chegaralarida – Afg'oniston va Tojikistonda so'ngi yillarda yuz minglab insonlar hayotiga zomin bo'lgan ikkita tanglik o'chog'i alanga olib turibdi.¹

Beshinchidan, O'zbekiston o'zining iqtisodiy salohiyati, xom-ashyo resurslarga boyligi, ishchi kuchi va demokratik imkoniyatlari, ko'p jihatdan geopolitik joylashuviga ko'ra ham, mintaqada yetakchi o'rinda turganligi bilan ajralib turadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari o'z mustaqilligini qo'lga kiritib, taraqqiyot sari qadam tashlayotgan hozirgi sharoitda ham jahondagi ma'lum bir siyosiy kuchlar, mafkuraviy poligonlar ulkan iqtisodiy salohiyat va qulay geopolitik mavqega ega bo'lgan bu mintaqani o'z manfaatlari doirasiga tortish xarakterlaridan to'xtagani yo'q. Ular o'z maqsadlariga erishish uchun ta'sir va bosim o'tkazishning barcha shakllarini qo'llamoqdalar. Jumladan, Markaziy Osiyo mamlakatlarining o'zaro iqtisodiy integratsiyalashuv jarayoniga to'sqinlik qilish, ularda o'zaro bir-birlaridan norozilik kayfiyatini uyg'otish kabi mafkuraviy ta'sir o'tkazish holatlari sodir bo'layotganligini ta'kidlash mumkin.

Bu maqsadda mintaqada tarixan shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ma'rifiy aloqalarni izdan chiqarish, do'st va birodar davlatlar, xalqlar va millatlar o'rtasiga nizo solish, keskinlik o'choqlarini keltirib chiqarish uchun turli g'oyaviy, diniy va mafkuraviy vositalar ishga solinmoqda. Ayniqsa, Markaziy Osiyo xalqlarining dunyoqarashi va ma'naviyatida islom dinining mustahkam o'rin egallaganidan foydalanib, ularga islomiy "saboq" berish, islomni qayta tiklash bayrog'i ostida mintaqada diniy ekstremizm va fundamentalizmni keng tarqatish borasida olib borilayotgan qo'poruvchilik xarakterlari kuchaydi.

Aynan ana shu xatti harakatlar bugungi kunda o'z obro'sidan butunlay mahrum bo'lgan marksizm-leninizm ta'limotini eslatib turadi. Masalan, Rossiyada marksistlarning eng jangari oqimi-bol'sheviklar, millati va irqidan qat'iy nazar, dunyoda yashayotgan barcha xalqlarni birlashtirish g'oyalarini ilgari surib, terror yo'li bilan hokimiyatni qo'lga kiritgan edilar. Ularning asosiy fojealaridan biri ham milliy omilning va tadrijiylikning ahamiyatini tan olmaganlarida edi. SHuning uchun ham ular tarixda zo'ravon ekstremistik g'oyalar sohibi sifatida nom qoldirdilar.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bysag'asida: xavfsizlikka ta'vudid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T. "Uzbekiston", 1997, 20-21 betlar.

Bugun diniy ekstremizm va fundamentalizm tomonidan Markaziy Osiyoda olib borilayotgan qo'poruvchilik va terroristik xarakatlar xam ana shunday maqsad, yo'l va uslublarga tayanmoqda.

Diniy ekstremizm va fundamentalizmining mintaqamiz, hususan mamlakatimiz taraqqiyotiga xavf tug'dirayotganligini Prezidentimiz teran anglab, bu qanday dahshatli oqibatlariga olib kelishi mumkinligidan hammamizni ogoh qilgan edi. Toshkentda fevral fojealari sodir etilmasdan ikki yil oldin Prezident I.A.Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" nomli fundamental asarida shunday yozgan edi: "Ko'plab siyosatchilar, olimlar, jurnalistlar XX asr oxirida yuz bergan "Islom uyg'onish", "qayta islomlanish", "islom fenomeni" va boshqa turli-tuman nomlar bilan atalgan hodisaning sabablarini tushuntirib berishga harakat qildilar. Bu tushunchalar haqida munozaraga kirishmagan holda, e'tiborni jahon hamjamiyati hayotida islom qadriyatlarini tiklash bayrog'i ostida ro'y berayotgan hodisalar g'oyat xilma-xil, ko'p qirrali, ba'zan ziddiyatli va hatto qarama-qarshi qutbli ekanligiga qaratmoqchiman. SHu bilan birga aniq-ravshanki, jahon jamoatchiligi bu jarayonlarga juda katta qiziqish bilan qarabgina qolmayapti. Uning diniy ekstremizm va fundamentalizm kabi keskin hodisalar munosabati bilan bezovtalanayotganligi ba'zan esa, hatto xavfsirayotgani ham ko'zga tashlanmoqda. Afsuski, hozirgi zamon sharoitida ana shu o'ta keskin ko'rinishlar jiddiy mojarolarni, ziddiyatlarni keltirib chiqarishi, barqarorlik va xavfsizlikka tahdid solishi mumkinligini insoniyatni cho'chityapti. SHundan darak beruvchi fikrlar ancha-muncha to'planib qolgan. O'zbekistonning mustaqilligini mustahkamlash, uning xavfsizligini ta'minlash zarurligi nuqtai nazardan qaraganda, bu xodisalar bizda ham jiddiy tashvish tug'dirmoqda".¹ Bu fikr haqiqat bo'lib chiqdi. Ekstremistlar 1999 yilning 16 fevralida o'zlarining qora niyatlariga erishish maqsadida Toshkentda qo'poruvchilikni amalga oshirdilar. Bu qo'poruvchilik harakatlari orqasida katta kuchlar borligi ayon. Ularning maqsadi, – Prezidentimiz ta'kidlaganidek, – xalqimizning tinchligini buzish, qo'rqitish, yuragiga vahima solish, yuritayotgan siyosatimizga ishonchni so'ndirish, amalga oshirayotgan ulkan ishlarga zarba berishdan iborat.

Xo'sh, nima uchun bu fojealar O'zbekistonda sodir etildi, uning Markaziy Osiyodagi boshqa davlatlarga ta'siri bo'lishi mumkinmidi? Uning Toshkentda sodir etilishiga asosiy sabab shuki, yurtimizda olib borilayotgan siyosatning yutuqlari jahon jamoatchiligi tomonidan e'tirof etilmoqda. Nisbatan qisqa davr ichida O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy jihatdan barqaror, umuminsoniy qadriyatlar ustuvor bo'lgan, ma'naviy merosni va diniy qadriyatlarni tiklab, inson huquqlarini ustuvor soha darajasiga ko'tara olgan mamlakatdir. Xalqining Prezidentga, davlatga ishonchi nihoyatda mustahkam bo'lgan O'zbekiston Markaziy Osiyoda barqarorlikni ta'minlash va mintqa davlatlarining o'zaro integratsiyalashuvi jarayonida yetakchilik qilmoqda. Xuddi

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. 34-bet.

mana shu o'ta katta ahamiyatga ega bo'lgan omillar, asoslangan istiqboldagi yutuqlar xalqimiz va malakatimiz taraqqiyotining dushmanlarini vahimaga solmoqda.

Agar O'zbekistonda dushmanlarimiz mo'ljallagan maqsadlar amalga oshsa, bu nafaqat bizda, balki butun mintaqa davlatlarida ham juda katta siyosiy o'zgarishlarning sodir bo'lishiga sabab bo'lishi, mintaqaviy integratsiya jarayonlariga o'zining ulkan salbiy ta'sirini o'tkazishi mumkin edi. Terroristlarning amalga oshirgan qo'poruvchilik harakatlari ko'zlagan maqsadiga yetmadi va yetolmaydi ham.

O'zlarini islom dinining "himoyachilari" deb ko'rsatishga urinayotgan terroristlarning asl niyati chinakam islomiy qadriyatlarni tiklash emas, balki hokimiyatni qo'lga kiritish, Markaziy Osiyodagi mamlakatlarni o'zlari tanlagan yo'ldan qaytarish va butun mintaqada o'z hukmronligini o'rnatish edi. Aslida, mustaqillik yillarida mamlakatimizda haqiqiy islomiy qadriyatlarimiz tiklandi va bu yo'nalishda izchillik bilan katta ishlar amalga oshirilmoqda. Dinimizning xalqimiz ma'naviyatining ajralmas qismiga aylanganligi Prezidentimizning quyidagi fikrlarida o'z aksini topgan: "Biz o'z millatimizni mana shu muqaddas dindan ayrim holda aslo tasavvur qilolmaymiz. Diniy qadriyatlar hayotimizga shu qadar singib ketganki, ularsiz biz o'zligimizni yo'qotamiz.

Xalqimizning ming yillik tarixini, bugungi ma'naviy hayotini, dinu diyonatimizni muxtasar ifodalab aytish mumkinki, Olloh bizning qalbimizda, yuragimizda".¹

Umuman Markaziy Osiyo xalqlari mustahkam do'stligining ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim. Chunki, mintaqa tub xalqlarining ma'naviy ildizlari bir, ruhi, turmush tarzi yaqin, ular ana shu boy manbadan birdek bahra oladilar. Shu ma'noda ham ular birligini mustaxkamlash umummintaqaviy ma'naviy yuksalishimizga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazib turaveradi. Bu jarayonga qarshi qaratilgan har qanday mafkuraviy ta'sir yoki terroristik harakatlar umummintaqaviy qarshilikka uchraydi va barbod bo'ladi.

2.2. Mintaqaviy mojarolar va uning davlatlararo munosabatlarga ta'siri.

Ikki mafkuraviy tuzumning kurashi va bu kurashning xalqaro hayotning hamma sohalariga soya tashlashi ostida o'tgan kuchli qarama-qarshilik barham topdi. Ammo shundan keyin ham bizni qurshab turgan dunyo, ko'plar kutganidek, osoyishtaroq bo'lib qolgani yo'q. Unda mojarolar kamaymadi. Dunyoda yangi tartiblarni shakllantirish jarayoni mintaqalar darajasidagi va mintaqalar ichidagi eskidan saqlanib kelayotgan, zimdan tutab yotgan, har xil tarixiy, etnik, siyosiy, diniy va boshqa sabablarga ega bo'lgan mojarolarning keskinlashuvi bilan birga yuz berdi.

¹ Karimov I.A. Olloh qalbimizda yuragimizda. "Turkiston press" axborot agentligi muxbirining savollariga javoblar. Xalq so'zi, 1999 yil 6-mart

SSSR parchalanib ketganidan keyin bizning irodamiz yoki intilishimizga bog'liq bo'lmagan holda O'zbekiston amalda front yaqinidagi davlatga aylanib qoldi. Uning tashqi chegaralarida so'nggi yillarda yuz minglab insonlar hayotiga zomin bo'lgan ikkita tanglik o'chog'i alanga olib turibdi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek "O'zbekistonning geosiyosiy va geostrategik mavqei, uning Markaziy Osiyo mintaqasidagi kommunikatsiyalari shunday bir kalit, shunday bir tayanchdirki, uning asosida butun keng mintaqaning bozorini o'zlashtirish mumkin".

Urush jamiyat va davlatning holatiga falokatli ta'sir ko'rsatadi. Bu - urushning tabiiy yo'ldoshi bo'lgan iqtisodiy vayrongarchilikdangina emas, balki millatning kelajagi uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi boshqa sohalarda ham namoyon bo'ladi.

Shunday ekan, mintaqaviy mojarolar jamiyatimiz farovonligi va respublikamiz taraqqiyoti uchun qanday xavf tug'dirmoqda? Bir qarashda, O'zbekiston chegaralariga yaqin joylarda yuz berayotgan barcha nizolar davlatimizdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni saqlab turishga bevosita aloqasi yo'qdek tuyuladi. Bundan buyon ham tashvishli hodisalar bizni chetlab o'z yo'lidan rivojlanaveradi, barqarorlik o'z-o'zicha saqlanaveradi, mamlakatning kelajagi esa o'z-o'zidan ta'minlangan, deya fikr yuritishni ham siyosiy, ham fuqaroviy kalabinlikdan boshqa narsa emas, deb hisoblaymiz.

Mavjud mintaqaviy tanglik sharoitida O'zbekistonning xavfsizligiga tahdid xayoliy emas, balki yaqqol mavjuddir. Mintaqaviy mojaroni faqat taraflarning belgilab qo'yilgan doiralardagi qurolli qarama-qarshiligi, shu jumladan tinch aholi o'rtasida ko'plab qurbonlarga olib keladigan qarama-qarshiligi deb hisoblamaslik kerak. U muayyan jamiyat va qo'shni davlatlar hayotiga ta'sir ko'rsatadigan qarama-qarshilikdir. Agar masalaga shu nuqtai nazardan qaraladigan bo'lsa, bu tahdidning haqiqatan mavjudligi yaqqol ayon bo'ladi.

Insoniyat tsivilizatsiyasining rivojlanish tarixi, ayniqsa har jihatdan bir-biriga bog'liq bo'lib qolgan hozirgi dunyo sharoitida, shundan aniq dalolat berib turibdiki, alohida olingan bir davlatdagi har qanday mojar o uzoq vaqt davomida milliy chegaralar doirasida qolib keta olmaydi. Bir qancha sabablarga ko'ra bunday mojar o nazorat qilib bo'lmaydigan darajada yoyilib ketishi muqarrar. Bu esa ertami, kechmi qo'shni davlatlar oldiga barcha salbiy oqibatlari bilan birga qator muammolarni ko'ndalang qo'yadi.

SHunday qilib, alohida olingan davlatdagi ichki mojaroni, shu mojar o bilan qo'shni mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro aloqani bir-biriga bog'liq bo'lmagan hodisalar deb hisoblash xato bo'lur edi. Afg'onistondagi harbiy-siyosiy tanglik, beqarorlik butun Markaziy Osiyodagi mintaqaviy barqarorlik holatiga ham, jumladan, O'zbekistonning milliy xavfsizligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi.

Bizning sharoitimizda ushbu xulosani tasdiqlash uchun teran nazariy fikrlar bildirish yoki boshqa mintaqaviy mojarolarning tarixini dalil sifatida keltirish zarurati bo'lmasa kerak. SHu

jihatdan olganda, mintaqaviy mojarolar hal qilinmas ekan, Markaziy Osiyodagi davlatlarning biron-tasi o'zini xavfdan xoli deb hisoblamaydi va ishonch bilan olqa bora olmaydi, degan fikrni davom ettirish mantiqan to'g'ri bo'lur edi.

Hozirning o'zidayoq ko'zga tashlanayotgan va keyinchalik vujudga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar ko'lami keng.

Birinchidan, vaziyatning rivojlanishi natijasida qurolli yoki boshqacha tarzda qo'poruvchilik faoliyati ataylab yoki beixtiyor qo'shni davlatlar hududiga o'tishi mumkinligi jiddiy e'tiborni talab qiladi.

Ikkinchidan, so'nggi yillarda voqealar fojiali tus olganligining yana bir sababi shundaki, afg'on mojarolariga, ma'lum etnik nizolardan tashqari, yana diniy tus ham berildi. Islomning keskin siyosiylashuv jarayoni sodir bo'lmoqda. U o'ta radikal tus oldi - hokimiyat tepasiga chiqishga da'vogarlik qilish va barcha dindoshlarni madadga chaqirgan holda bunga qurolli yo'l bilan erishishga ochiqdan-ochiq urinish yuz bermoqda. Dinimizning insonparvarlik g'oyalari va asoslariga hech bir aloqasi bo'lmagan ana shu jarayon Tog'li Badaxshondan tortib to Kaspiygacha bo'lgan juda katta hududdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga bevosita yoki bilvosita salbiy ta'sir ko'rsatdi. Mintaqadagi davlatlarda afqon stsenariysini o'z xalqlariga zo'rlab qabul qildirishga tayyor turgan ekstremistik kayfiyatdagi unsurlar topilib qoldi. Afg'oniston voqealari esa qanday fojiali oqibatlarga olib kelganligiga hali biz ham baho beramiz, kelgusi avlodlarimiz ham baho beradi.

Uchinchidan, hokimiyatga intilayotgan turli afg'on guruhlarining etnik-diniy da'volari asosida kelib chiqqan Afg'oniston mojarosining markazdan qochuvchi to'lqinlari butun mintaqaga salbiy ta'sir ko'rsatishda davom qilmoqda va muayyan shakl kasb etmoqda. Bu hol tojik-afqon chegarasidagi qurolli ig'vogarliklarda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bu ig'vogarliklar Afg'oniston Islom davlati hududidan turib olib borilayotgan qo'poruvchilik faoliyatining boshqa ko'rinishlari bilan birga Tojikistondagi va butun mintaqadagi vaziyatni tegishli jiddiy izdan chiqarmoqda. Ana shunday sharoitda turli-tuman "din uchun kurashuvchilar" o'z xatti-harakatlari va niyatlarini oqlash uchun diniy shiorlardan foydalanmoqdalar. Xalqlarimizga va ularning ma'naviy dunyosiga xos bo'lmagan ideallar va qadriyatlarni zo'rlab qabul qildirishga urinmoqdalar. Fitna va o'rta asr jaholatparastligi urug'larini sochishga, bizni insoniyat tsivilizatsiyasidagi munosib o'rnimizdan mahrum qilishga intilmoqdalar.

Nihoyat, alohida e'tiborga molik bo'lgan yana bir potentsial xavf-xatar haqida. Mojarolarning davom etishi ba'zi bir kimsalarga "ajratib yuborilgan xalqlar" muammosini zo'r berib avj oldirishga imkon bermoqda. Bunda ko'pincha, masalan, Afg'oniston bilan chegaraning ikki tomonidagi tojiklar yoki o'zbeklarni, yo bo'lmasa, pushtun qabilalarini birlashtirish foydasiga sun'iy dalillar to'planmoqda. Mavjud chegaralarni etnik asosda o'zgartirish yo'lidagi

har qanday urinish qanday oqibatlarga olib kelishini tasavvur qilishning o'zi dahshatli. Mintaqamizdagi chegaralarni o'zgartirish butun jahon hamjamiyati uchun dahshatli oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Hatto Bosniya va Gertsegovinadagi mojarolar bu mudhish voqealar oldida "holva" bo'lib qolishi hech gap emas.

Umuman olganda, cho'zilib ketgan mintaqaviy mojarolar atrofdagi davlatlar uchun (tabiiyki, O'zbekiston ham bundan mustasno emas) aynan hozir keng doiradagi muammolar manbaiga aylandi. Keyinchalik esa ular siyosat, mafkura, millatlararo munosabatlar va boshqa sohalarga ham zimdan salbiy ta'sir etishi, putur yetkazishi mumkin.

Mintaqaviy mojarolarning oqibatlari ancha sezilarli shaklga ham ega. Ular davlatlarning milliy iqtisodiyotiga va xo'jalik aloqalariga ta'sir ko'rsatadi. Bu esa mavhum kategoriya bo'lmay, balki har bir fuqaroning va jamiyat a'zosining aniq hisoblab ko'rsa bo'ladigan manfaatlari demakdir.

1. Masalan, Afg'onistondagi urush mamlakatning shundoq ham yaxshi rivojlanmagan iqtisodiyotini boshdan-oyoq vayron qildi. Bu urush hozirgi vaqtda Markaziy Osiyo davlatlariga "iliq dengizlar"dagi portlarga chiqish va shu yo'l bilan jahon xo'jalik aloqalari tizimiga qo'shilish imkonini beradigan yangi transport kommunikatsiyalarini ochish yo'lida asosiy Qov bo'lmoqda. Bu esa, o'z navbatida, milliy iqtisodiyotning rivojlanishini sekinlashtirmoqda. CHunki samarali mol ayirboshlash uchun juda qisqa va barqaror transport kommunikatsiyalari kerak bo'lishi hammaga ma'lum.

2. Qurolli mojarolar keskinlashgan taqdirda chegaralarni tan olmasdan, qo'shni davlatlar hududiga "yopirilib kirish"ga tayyor turgan qochoqlar muammosi vujudga keladi. Odatda, bu oqimda chegara orqali non va boshpana topishnigina emas, balki odamlarning qalbiga yangi g'ul'g'ula solishni istaydiganlar ham kirib keladi. Qochoqlarni qabul qiluvchi tomon uchun bu masalaning tabiiy insonparvarlik jihati bilan birga, iqtisodiy tomoni ham mavjud. CHunki qochoqlarni joylashtirish va ularning ko'p sonli, kechiktirib bo'lmaydigan muammolarini hal qilish uchun o'z byudjetidan qo'shimcha mablag'lar qidirib topish zaruriyati beixtiyor paydo bo'ladi.

3. Afg'oniston bilan Tojikistonda cho'zilib ketgan mintaqaviy mojarolar salbiy hodisalarni keltirib chiqarmoqda, chegaradosh davlatlar uchun jiddiy xavf tug'dirmoqda. Bu salbiy hodisalar haqida gapirganda, qonunga xilof ravishda narkotik moddalar olib o'tilishi, xalqaro terrorizm va qurol-yarog' kontrabandasi kabi muammolarga ham to'xtalib o'tish lozim. Ma'lumki, vayrongarchilik va siyosiy tartibsizlik sharoitida urush harakatlarini olib borish oddiy aholi uchun asosiy yumushgina emas, balki omon qolish usuli ham bo'lib qolmoqda. Ayni paytda Afg'onistondagi mojaroda qatnashayotgan guruhlar uchun narkotik moddalarni ishlab chiqarish va sotish qurol-yaroQ xarid qilish va boylik orttirish uchun pul topishning eng qulay vositasiga

aylanmoqda. Turli xalqaro tashkilotlar, shu jumladan BMT tahliliga ko'ra, Afg'oniston qoradori xom ashyosini tayyorlovchi dunyodagi yetakchi davlatlardan birigagina emas, balki narkotik moddalar olib o'tiladigan eng yirik bazaga ham aylanib qoldi. Bu makon orqali narkotik moddalar tobora ko'proq miqdorda Markaziy Osiyo davlatlariga va so'ngra o'arbga yetkazilmoqda. Tabiiyki, ularning bir qismi bizning mintaqamizga "singib ketmoqda". Bu esa jinoyatchilikning o'sishiga, yoshlarning buzilishiga, hatto millatning genofondi aynishiga sabab bo'ladi.

4. Afg'oniston bilan Tojikistondagi mintaqaviy mojarolar hal bo'lmayotir. Bu esa mintaqadagi davlatlar, shu jumladan O'zbekiston oldiga terrorizm va qurol-yaroqlar kontrabandasi singari hodisalarning qo'shni davlatlar hududlariga yoyilishi bilan bo'qliq bo'lgan yangi va G'oyat xavfli muammolarni ko'ndalang qo'ydi. Endilikda milliy xavfsizlikni va ichki barqarorlikni ta'minlash darajasi ana shu muammolarni hal qilishga bo'qliq. Yaqin Sharqdagi va sayyoramizning turli nuqtalaridagi boshqa tangliklar, shuningdek, MDH hududidagi (Checheniston, Tog'li Qorabog', Abxaziya va boshqalardagi) voqealarning o'xshash jihatlariga qarab terrorchilik faoliyatini Afg'oniston bilan Tojikistonning milliy chegaralaridan tashqariga ko'chirish imkoniyatlari qay darajada ekanligini tasavvur etish mumkin. Buning ustiga, Afg'oniston hududi va chegaralari nazorat qilib bo'lmaydigan qurol-yaroq aslahaxonasiga aylangan. Bunday sharoitda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi chegaralar ochiqligi yanada xatarlidir. Afg'oniston hududida tayyorgarlikdan o'tgan yoki partizanlar urushida tajriba orttirgan jangarilar dunyoning ko'pgina davlatlaridagi, Kavkazorti, Checheniston va Tojikistondagi qurolli mojarolarda faol qatnashgan bo'lishi mumkinligini ham inkor etish mushkul.

Milliy xavfsizligimizga chetdan real tahdid solayotgan Afg'oniston va Tojikistondagi mintaqaviy mojarolar na Markaziy Osiyoda va na butun dunyo miqyosida barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi. Bu mojarolarning katta salbiy potentsiali butun dunyo ko'lamida halokatli oqibatlariga olib kelishga qodir.

Nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasidagi, balki undan tashqaridagi har bir sog'lom fikrli inson mintaqaviy mojarolarning yanada avj olishi bu hududdagi mamlakatlarning tanlaydigan yo'lga ta'sir ko'rsatmasdan qolmasligini yaxshi anglaydi. Bu mojarolar ularning ijtimoiy-siyosiy rivojlanishi qanday, qaysi yo'ldan borishiga, XXI asr arafasida va boshlarida millionlab kishilarning taqdirini belgilab beradigan demokratik va bozor islohotlarining istiqbollari qanday bo'lishiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

"Sovuq urush" davri tugashining asosiy yakuni shu bo'ldiki, insoniyat uchinchi jahon urushidan qutulib qolishga muvaffaq bo'ldi. Mintaqaviy mojarolarning, shular qatori Afg'onistondagi mojaroning va Tojikistondagi qarama-qarshilikning dunyo miqyosida kelib

chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlarini cheklashga va tarqatmaslikka bugungi kunda hammamizning ham aql-idrokimiz, tajribamiz va qat'iyatimiz yetadimi?

O'zbekiston respublikamiz bilan chegaradosh mamlakatlardagi harbiy-siyosiy mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilishga va ularning oldini olishga qaratilgan har qanday harakatlarni, amaliy qadamlarni qo'llab-quvvatlab keldi va bundan buyon ham qo'llab-quvvatlayveradi. Bu yo'lda mamlakatimiz ham o'z davlat siyosati doirasida, ham xalqaro tashkilotlar mexanizmlaridan foydalangan holda, mavjud imkoniyatlarni aniq maqsadni ko'zlab ishga soladi. Butun milliy strategiyamizning asosiy yo'nalishlaridan biri ana shunday mazmun-mohiyatga ega.

2.3. Diniy ekstremizm va fundamentalizmning mintaqaviy xavfsizlikka tahdidi.

Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasida qilgan ma'ruzasida asosiy e'tiborni mamlakatimizga ko'z tikkan yovuz kuchlarning 2004 yil 29-30 mart va 1 aprel kunlari amalga oshirgan qabih qilmishlari va hamda terrorizmning jirkanch qiyofasini ochib berishga qaratib o'tdi: «Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, g'animlarimizning asosiy niyati - O'zbekistonda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikni, jamiyatimizdagi bunyodkorlik muhitini, bugun barpo etayotgan farovon va osuda hayotni buzish, tobora kuchga kirayotgan davlatimizni ag'darish, tanlagan yo'limizdan qaytarish»dir. Prezidentimiz so'zlari bilan aytganda: «Biz islom dini ota-bobolarimiz dini ekanini, u biz uchun ham iymon, ham ahloq, ham diyonat, ham ma'rifat ekanini doimo yuksak qadrlaymiz. Xalqimizning ming yillik tarixini, bugungi ma'naviy hayotini, dinu diyonatimizni muxtasar ifodalab, aytish mumkinki, Alloh bizning qalbimizda, yuragimizda. Dinga hurmat va e'tiqod – biz uchun o'lmas qadriyatdir»¹.

130 yillik mustamlakachilik va mustabid tuzum davrida xalqimizni o'zining ma'naviy ildizlaridan ayirish, dinni jamiyat hayotidan siqib chiqarishga qaratilgan siyosat natijasida ma'naviyat va ma'rifat o'rnini ma'lum darajada jaholat egalladi. Yurtdoshlarimiz Qur'oni karim, Hadis, tasavvuf, shariat, fiqh ilmlari haqida umumiy tushunchaga ham ega bo'lmay qoldi.

Ana shunday sharoitda, mustaqillikka erishgan O'zbekistonga o'z ta'sirini o'tkazishga intilgan yovuz kuchlar islom omilidan g'arazli maqsadlarda foydalanishga harakat qildilar. Islom dinining sof g'oyalari niqobi ostida siyosiy hokimiyatni egallashga intildilar. Alloh, islom kabi so'zlar bilan nomlangan, eshitalishi jarangdor «Islom uyg'onish partiyasi», «Hizbulloh» («Alloh partiyasi») kabi partiya va tashkilotlar tuzib, mavjud konstitutsiyaviy tuzumni ag'darib tashlab islom davlati qurish, halifalikni qayta tiklashga harakat qildilar. Vaholanki, Islomda partiyalar

¹ Islom Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. Toshkent, «O'zbekiston», 2000. 20-21-betlar.

tuzib, guruh-guruhlarga ajralib harakat qilish man etilgan. Bu haqda Qur'onning Oli Imon surasi, 103-oyatida shunday deyilgan: «Va barchangiz Allohning arkoni (Qur'on) ga bog'laningiz va (firqalarga) bo'linmangiz».

“Bugungi kunda islom diniga nisbatan butun dunyoda qiziqish va intilish kuchayib, uning xayrixoh va tarafdorlari ko'payib borayotgani hech kimga sir emas. Buning asosiy sababi muqaddas dinimizning haqqoniyligi va pokligi, insonparvarligi va bag'rikengligi, odamzotni doimo ezgulikka chorlashi, hayot sinovlarida o'zini oqlagan qadriyat va an'analarni ajdodlardan avlodlarga yetkazishdagi beqiyos o'rni va ahamiyati bilan bog'liq. Va xalqimizning ma'naviyatini shakllantirishga, har qaysi insonning Olloh marhamat qilgan bu hayotda to'g'ri yo'l tanlashi, umrning mazmunini anglashi, avvalambor, ruhiy poklanish, yaxshilik va ezgulikka intilib yashashida uning ta'sirini boshqa hech qanday kuch bilan qiyoslab bo'lmaydi, deb o'ylayman”¹.

Dinni asl holida saqlab qolish uchun harakat qilib odamlarni bir-biriga qarshi qo'yib, qon to'kishni tashkil qilayotgan, amalda esa o'zining manfaatlarini o'ylayotgan kishilarni Yevropada fundamentalistlar, O'rta Osiyoda esa aqidaparastlar, deb ataladi.

Fundamentalizm so'zi lotinchadan kelib chiqqan bo'lib, asos, poydevor ma'nosini bildiradi. Fundamentalizm barcha dinlarga hos bo'lib, unda dinning asli qanday bo'lsa, shundayligicha saqlab qolishga harakat qilinadi.

Fundamentalizm – ya'ni aqidaparastlik – ma'lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va shu yo'l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari suruvchilarning qarashlaridir. Diniy fundamentalizm – ma'lum din, shu jumladan Islom dini aqidalarining o'zgarmasligini himoya qiladigan, vahiy va mo'jizalarning muqaddas kitoblardagi bayonining harfiy, so'zma-so'z talqini tarafdori bo'lgan qarashdir. Bunday qarash tarafdorlari diniy aqidalarining har qanday majoziy talqiniga, izohlanishiga muvohiqsizliklari bilan ajralib turadilar.

Diniy fundamentalizm – din aqidalarini so'zma-so'z talqiniga asoslangan e'tiqodni aqlga tayangan mantiqiy dalillardan ustun qo'yadigan, muayyan din, shu jumladan Islom dini e'tiqodi shakllanishining boshlang'ich davrida belgilangan barcha yo'l-yo'riqlarning qat'iy va og'ishmay bajarilishini talab qiladigan tushunchadir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Islom fundamentalizmi – Qur'on va hadislarini so'zma-so'z talqin etuvchi, ilk islomga qaytishga qaratilgan aqidalarni targ'ib qiluvchi diniy-konservativ ruhdagi oqim tarafdorlarining qarashlari, deyishimiz mumkin. Islom fundamentalizmi vakillari islomning fundamental (asosiy) tamoyillari jamiyatning taraqqiyot yo'lini belgilab beradi, deb hisoblaydilar va faqat ularga amal qilishga da'vat etadi.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. 36-37 b

Ekstremizm so'zi frantsuzcha – lotinchadan kelib chiqqan bo'lib, mazmuni jamiyatdagi u yoki bu hodisa, jarayonlarga nisbatan keskin fikrlarni bildirilishi va qattiq tadbirlarni qo'llanilishi yoki keskin fikr va choralarni yoqlovchi, uning amalga oshirilishiga tarafdor ma'nolarini bildiradi. Bunday keskin fikrlar sog'lom yoki nosog'lom bo'lishi mumkin. Jamiyat uchun nosog'lom, uning taraqqiyotiga zid bo'lgan, jamiyatda, fuqarolar va millatlar o'rtasidagi munosabatlarda beqarorlik keltirib chiqaradigan keskin chora va fikrlarni ilgari suruvchi, ularni amalga oshirishga intiluvchi, uni yoqlovchilarni ekstremistlar deyiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, diniy ekstremizm u yoki bu dinning aqidalarini, qonun-qoidalarini kishilar hayoti va jamiyatga joriy etish, qaror toptirishda keskin chora va tadbirlar, zo'ravonlik qo'llashga aytishimiz mumkin.

Islom ekstremizmi – islomning qadimiy g'oyalari va ideallarini qayta tiklashni kuch ishlatish yo'li bilan amalga oshirishga qaratilgan diniy-siyosiy harakat. Bunday harakat diniy mutaassiblikka asoslangan bo'lib, muayyan mazhab ta'limotiga qattiq yopishib olish oqibatida yuzaga keladi va muayyan siyosiy va iqtisodiy manfaatlarni amalga oshirishga ochiqdan-ochiq intiladi.

Diniy ekstremizm faqat Islom olamiga tegishli bo'lib qolmay, balki dunyodagi barcha dinlarga ham xos hodisadir. Masalan, o'rta asrlarda xristian ekstremist ruhoniylari muqaddas kitoblarda belgilangan har qanday aqidalarga qarshi chiqish Xudoning irodasini buzishdir, bu eng katta gunohdir deb, bunday kishilarni dindan qaytganlikda ayblab, ularga nisbatan keskin choralar qo'llab ayovsiz jazolaganlar. Xususan 13-asrda papa qo'shinlari Frantsiyaning janubida 20 ming kishini qirib tashlagan. Ilg'or fikrli ziyolilarga qarshi inkvizitsiya (cherkov) sudi joriy etilib Jardono Bruno o'tda kuydirildi, Galileo Galiley besh oy qamoqqa solinib, tavbasiga tayantirildi. Lekin baribir u «er aylanadi» degan fikrdan qaytmadi.

Islom dini doirasida birinchi ekstremistik oqim – xorijiyalar harakati bo'lgan. Xorijiyalar halifa Ali ibn Tolib bilan ummaviylar davlatining asoschisi Muoviya o'rtasidagi urushni muzokara va kelishish orqali to'xtatish siyosatiga Ali rozilik bergani uchun unga qarshi bo'ldilar. Xorijiyalardan biri Abdurahmon ibn Muljam as-Sorimiy 661 yilda 4-halifa Ali ibn Abu Tolibni yarador qilib o'ldirdi. Xorijiyalar ummaviy va abbosiylar halifaligiga qarshi urush olib borib, juda ko'p musulmonlarning o'limiga sababchi bo'lganlar.

Islomdagi eng ta'sirchan diniy ekstremistik guruhlardan biri 1928 yilda Misrda tashkil topgan «Musulmon birodarlari» («Al-ihvon al-muslimun») uyushmasidir. Bu uyushma diniy-siyosiy tashkilot bo'lib, u hayr-ehson va ma'rifatchilik faoliyatidan tortib to siyosiy hayotda terror usulini qo'llashgacha bo'lgan murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Diniy ekstremistik kuchlar 20-asrning 60-70 yillarida Misrda Jamol Abdul Nosir hukumatini ag'darib tashlashga urindilar. 1981 yilda esa Misr prezidenti Anvar Sadatga suiqasd uyushtirib o'ldirdilar.

1994 yilda Qandahor hududida yuzaga kelgan yangi siyosiy harakat – «Tolibon» harkati ham diniy ekstremizmning Afg'onistondagi bir ko'rinishidir. Ular Afg'oniston hayotiga o'rta asr diniy tartib-qoidalarini tatbiq etish, xalqni dunyo madaniyatidan uzib qo'yish yo'lidan bordilar. Tolibonlar hokimiyat tepasiga kelgach «Inson huquqlari umumiy deklaratsiyasi» va undagi mezonlarga amal qilmadilar. Oddiy insoniy haq-huquqlar poymol etildi. Xotin-qizlarni erkin bilim olish va mehnat qilish huquqidan maxrum etish, ularni yana chodra va paranji ichiga tiqish yo'lida keskin chora-tadbirlar o'tkazdilar. Yig'itlarni soqol o'stirib yurishga majburladilar. Navro'zni islomga zid deb topdilar.

Xullas, tolibonlar o'zlari egallagan yerlarda ko'z ko'rib quloq eshitmagan xunrezliklarni amalga oshirib jafokash Afg'on xalqiga ko'p kulfatlar keltirdilar. Yon qo'shnimiz Tojikistonda diniy ektermizm 150 mingga yaqin begunoh kishilarning qurbon bo'lishiga olib keldi. Islom diniy ekstremizmi turli mamlakatlarda barpo bo'lajaka «islomiy tartib» o'rnatish uchun keskin va agressiv harakat qilish zarur deb hisoblaydi. Ular o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun turli usullardan foydalanmoqdalar. Bular asosan quyidagilardan iborat:

- Zo'ravonlik, ya'ni terroristik harakatlarni amalga oshirish orqali omma ichida qo'rquv paydo qilish va o'zlarining kuchlarini ko'rsatish orqali hukumatga bosim-tazyiq o'tkazish;
- Mamlakat iqtisodini turli yo'llar bilan: diversiya, sanoat va qishloq xo'jaligi manbalarini izdan chiqarish orqali uni tanazzulga uchratishga urinish bilan hokimiyatni zaiflashtirish va pirovardida osonlik bilan ag'darib tashlash;
- Turli tashkilot va ommaviy axborot vositalarining «beg'araz» yordamida go'yo «mamlakatda fuqarolarning vijdon erkinligi huquqlari buzilmoqda va diniy e'tiqod poymol etilmoqda» kabi sohta, g'arazli qarashlarni tarqatib hukumatni din sohasidagi siyosatini buzib ko'rsatish orqali uni obro'sizlantirish va fuqarolarning unga bo'lgan ishonchini yo'qotish;
- Oz sonli diniy tashkilotlarga qarshi xujum uyushtirib, hatto ulardan ba'zilarni namoyishkorona jismonan yo'q qilish yo'li bilan dinlararo va millatlararo nizo keltirib chiqarishga urinish orqali mamlakatda beqaror vaziyatni vujudga keltirish va undan o'z maqsadlari yo'lida foydalanish;
- Islomiy ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zimdan tashkil etish orqali mamlakatni islomlashtirish va soddadil fuqarolar ongiga asta-sekin xorijiy va mahalliy doiralarning ekstremistik g'oya va maqsadlarini singdirib borish. Oqibatda tayyor bo'lgan ijtimoiy ongni kerakli vaqtda o'z diniy ekstremistik maqsadlarini amalga oshirish uchun osonlik bilan yo'naltirib yuboradigan holatga keltirish va boshqalar. «Taassufki, ba'zan islom dini va diniy aqidaparastlik tushunchalarini bir-biridan farqlay olmaslik yoki g'arazli maqsadda ularni teng qo'yish kabi holatlar ham ko'zga tashlanmoqda. SHu bilan birga, islom dinini niqob qilib, manfur ishlarni amalga oshirayotgan mutaassib kuchlar hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, g'o'r

yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirib, bosh-ko'zini aylantirib, ulardan o'zining nopok maqsadlari yo'lida foydalanmoqda"¹.

Diniy ekstremizmning yuqorida qayd etilgan ko'rinishlari bir vaqtning o'zida namoyon bo'lishi, sharoitga qarab ba'zilariga alohida urg'u berilishi mumkin. Ularning Qur'on oyatlariga asoslanishi Islomning sof g'oyalarini jamiyatga tatbiq etish uchun emas, balki yurtdoshlarimizning e'tiqodini chalg'itish va islom omili orqali xokimiyatga intilishdan boshqa narsani ko'zlamaydi. SHuning uchun islom dini va islom fundamentalizmi haqida so'z ketganda bu ikki tushunchani bir-biriga aralashtirib yuborish kerak emas.

Diniy ekstremizm qanday nomlanmasin yoki qanday ko'rinishga ega bo'lmasin, uning asosiy maqsadi jangari guruhlarini shakllash orqali hokimiyat tepasiga kelishdan iborat.

Umuman, «Fundamentalizm», «ekstremizm», «terrorizm», «fanatizm» kabi so'zlar tom ma'noda hokimiyat uchun kurashuvchi ijtimoiy-siyosiy guruh va oqimlarga tegishlidir.

Diniy ekstremizm – ba'zi diniy tashkilotlar yoki ayrim dindorlar tomonidan jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalariga mos kelmaydigan faoliyat olib borish, ularga zid bo'lgan «g'oyalar»ni targ'ib qilishdir. Masalan «islom ekstremizmi» shu dinning qandaydir bir yo'nalishga asoslangan holda o'z oldiga siyosiy maqsadlarni qo'yadi. Islom ekstremizmi o'zinig ikki xususiyati bilan ajralib turadi: birinchisi- ularning aqidasi ko'ra, go'yo barcha hozirgi zamon musulmon jamoalari islomiy tuslarini yo'qotganlar va «johiliya» asri jamiyatlariga aylanganlar. Bunday yondoshuv hukumat va uning olib borayotgan siyosatni keskin tanqid qilish uchun «asos» bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchi xususiyat ular go'yo faqat «haqiqiy» musulmonlar hokimiyatga kelgach barpo bo'lajak «tartib» uchun keskin va agressiv harakat qilmoqlari lozim. Bunday harakatlarning muvofiqligi masalasi ular tomonidan umuman o'rta qo'yilmaydi, zero, ular faqat shariatga (bu ham ularning tor talqinda) tayanib ish ko'radilar va islomdan chekingan hokimni ag'darishga go'yo haqlidirlar. Islom ekstremizmining «nozik» tomoni uning «din» ga (haqiqiy dinga emas) asoslanganidadir. Guruh rahbarlari o'z qo'llari ostidagi a'zolarining ongiga shu darajada ta'sir o'tkazadilarki, shundan so'ng ular hatto o'zlarini qurbon qilishga, muayyan maqsad yo'lida «shahid» bo'lishga tayyor turadilar.

Hozirgi zamon islom ekstremizmining g'oyaviy asoschisi sifatida «Musulmon - birodarlar» harakatidan yetishib chiqqan Sayyid Qutb (1906-1965) tan olingan. Uning maqsadi – islom davlatini barpo qilish va jamiyatni to'lig'ligicha islomlashtirishdir. Afsuski, muayyan ko'rinishda diniy ekstremizm O'zbekistonda ham paydo bo'ldi. Ular tomonidan sodir etilgan yovuz harakatlar ekstremistlarning «ish» uslublarini kishilar ko'z o'ngida yaqqol namoyon etmoqda.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. 37-b

Xristian dinining ba'zi sektalariga asoslangan ko'plab diniy ekstremistik harakatlar ham mavjud. Ayniqsa, «yaxvechilar», «pyatidesyatniklar», «tashabbuskor baptistlar» umuman qonuniy hokimiyat va dunyoviy qonunlarni tan olmaydilar. Ularning fikricha, go'yo cherkov davlatdan yuqori, uning aksi emas. Pyatidesyatniklarning ba'zi guruhlar esa o'z tobelarini o'ta shafqatsizlik bilan ado etiladigan ibodatlarga zo'rlaydilar, bu dunyo ne'matlaridan batamom voz kechib, tarkidunyochilik tarzida yashashga da'vat etadilar.

Diniy ekstremizm yoki ashaddiy aqidaparastlik turli ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin; O'zbekistondagi «ultra» protestantlar, Yaqin va O'rta SHarqdagi «Musulmon birodarlar», Markaziy Osiyo va Kavkazda paydo bo'lgan «Vahhabiylar» ning jamiyatga va qonunlarga qarshi kurashi deyarli bir uslubda olib boriladi.

Bevosita O'zbekistonga nisbatan diniy ekstremizmning tahdidi quyilagilarda ifodalanadi: 1) Aqidaparastlikni yoyish orqali islomiyat davlatga ishonchini yo'qqa chiqarishga urinish; 2) Diniy ekstremizm tarafdorlari dindorlarning umumiy soniga nisbatan juda ozchilikni tashkil etsada, ularning ta'siriga tushganlar hisobiga jamiyatda erksiz, mute', faoliyatsiz kishilar sonini o'ttirish; 3) «Sohta» va «haqiqiy» dindorlik belgilari bo'yicha qarama-qarshilikni keltirib chiqarish; 4) Bizga qo'shni bo'lgan notinch hududlar jangarlarini tayyorlash uchun qulay zamin ekanligi; 5) G'arbga «islomlashtirilgan» SHarqqa esa aksincha «dinsiz» «dahriy» shaklda ko'rsatib, O'zbekistonning xalqaro obro'siga putur yetkazishga urinish 6) Islom tsivilizatsiyasi bilan noislomiy tsivilizatsiyalar o'rtasida yalpi qarama-qarshilikni kuchaytirish va h.k.

Ta'lim-tarbiya davomida quyidagi vazifalarga keng e'tiborni qaratish lozim:

1. Talabalarda dinning hayotbaxsh ta'siri, tarbiyalovchi kuchiga mustahkam e'tiqodni qaror toptirish.
2. Dindan siyosiy va o'z maqsadlarida foydalanishga nisbatan muvofiqlashtirish bo'yicha tarbiyalash.
3. Din va diniy tashkilotlarga nisbatan qadriyatli munosabatni tarkib toptirish.
4. Yoshlar orasida aqidaparastlik g'oyalarining tarqalishini oldini olish.
5. Islom dini niqobida aqidaparastlikni targ'ib qilayotganlarga nisbatan yoshlarni g'oyaviy tayyorlash.
6. Talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish, g'oyaviy kurashchanligini yuksaltirish hamda bu boradagi ishlar samaradorligini ta'minlash uchun har bir talaba bilan individual tarbiyani yo'lga qo'yish
7. Talabalarda islomiy tsivilizatsiyaning rivojlanishida buyuk ajdodlarimizning qo'shgan hissalari haqidagi bilimlarni kengaytirish.
8. Talabalarni ota-bobolarimiz dini bo'lgan islom dini ruhida iymonli, diyonatli, ma'rifatli qilib tarbiyalashga erishish va boshqalar.

III-BOB. O'QUVCHI YOSHLARDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI OGOHLIK TUYG'ULARINI TARBIYALASH VAZIFALAR.

3.1. Taraqqiyot va hozirgi dunyoning mafkuraviy manzarasini o'rganishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Mamlakatimizda terrorizmga qarshi kurashda ma'naviy-ma'rifiy, mafkuraviy tarbiya orqali olib borishga alohida ahamiyat berilmoqda. Bunda esa avvalo fuqarolarimizga dunyoviy mohiyatga ega din haqida ma'lumot berish va diniy yo'nalishdagi maktablar va machitlardagi suhbat va ma'ruzalarda terrorchilikning mohiyatini ochib tashlash yo'lidan foydalanilmoqda.

Respublikamiz fuqarolarining erkinliklarini, ularning ongida demokratik qadriyatlarni va milliy mafkurani mustahkamlash va rivojlantirish hozirgi paytda eng dolzarb vazifalardan biri. Yurtboshimiz ko'rsatganidek, «o'z haq-huquqini taniydigan, o'z kuchi va qobiliyatiga tayanib yashaydigan, atrofida ro'y berayotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabatda bo'ladigan, shu bilan birga, o'z shahsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin shahsni shakllantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish darkor». Huquqiy davlat tuzish mohiyatini chuqur anglamaguncha, uning qonun-qoidalarini hurmat qilmaguncha taraqqiyot bo'lishi amrimahol.

Mamlakatimizning milliy istiqlolini mustahkamlash yo'lida nafaqat murakkab iqtisodiy va siyosiy masalalarni hal qilishga to'g'ri kelmoqda, shuningdek taraqqiyot yo'nalishini tanlash, qurilajak jamiyatning mazmun-mohiyati, tashkiliy va boshqaruv tamoyillari, jamiyat va inson munosabatlari qanday bo'lishi lozimligi masalasini xalqqa tushuntirish, turli yot, soxta, reaksion, ekstremistik qarashlardan uni himoya qilishga zarurat tug'ilmoqda.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, muholiflarimizning eng yovuz quroli-milliy qadriyatlarimizga to'g'ri kelmaydigan, eng yomoni ertaga o'rnimizni egallashi lozim bo'lgan yoki avlodning qalbi va tafakkurini zaharlaydigan buzg'unchi mafkuradir.

G'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yosh avlodni milliy g'oyada aks etadigan millatning haqiqiy orzusi – ozod va obod Vatanda erkin va to'q yashash orzusiga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur.

Turli g'oyaviy xurujlar avj olayotgan, ular bizning eng muqaddas g'oyalarimizga va maqsadlarimizga tahdid solayotgan bir paytda fojealar sodir bo'lmasidan ilgariroq uning oldini olishning eng to'g'ri va yagona yo'li ham begona va soxta g'oyalarga qarshi g'oyaviy immunitetni kuchaytirish lozim.

Milliy istiqlool mafkurasining shakllanishiga to'sqinlik qiluvchi eng katta sabab – bu eski aqidalardan xolos bo'lishning og'irligi.

Hozirgi zamondagi eng katta havf-insonlarning qalbini va ongini egallash uchun uzluksiz davoni etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar ko'p narsani hal qiladi.

Buni Prezident Islom Karimov: «Hozirgi vaqtda qudratli davlatlar va muayyan siyosiy markazlar o'z maqsadlariga erishishi uchun, avvalo, zabt etmoqchi, o'z ta'sir doirasiga olmoqchi bo'lgan mamlakatlarning aholisi ongini o'ziga qaram qilishiga intiladi», - deb ta'riflaydi.

Jahon siyosatida mafkuraviy ta'sir o'tkazish orqali xalqlarni, mamlakatlarni zabt etish tamoyili kuchaymoqda. G'oyaviy tazyiqning bunday shakli – turli tuman. Jumladan, islom omilidan foydalanish, diniy ekstremizmni kuchaytirish orqali diniy terrorizmni amalga oshirishga intilish yuqori mavqega ega bo'lmoqda.

Islom dini yuksak madaniy, ahloq-odob, ma'naviyat, ma'rifat mezonni sifatida hayotimizdan chuqur o'rin olgan. Bizning diniy aqidalarimiz turmush tarzimizning mazmuniga aylangan. Milliy an'analarimiz, urf-odatlarimiz islom dini qoidalari, talablari va mezonlari asosida shakllangan. Bizning dunyoqarashlarimizda, hayotga munosabatlarimizda, turmush tarzimizda islom dinining ta'siri va o'rni katta. Buni inkor qilib bo'lmaydi. Buni inkor qilishda nomaqbul g'ayriinsoniy hodisani yaqin o'tmishimizda ko'rdik. Kommunistik mafkuraning «Din - afondir», - degan shiori Sobiq SHo'ro musulmon xalqi hayotini xonavayron qildi, uning ruhini sindirdi, ma'naviy jihatdan shikasta qilib qo'ydi.

Mafkuradagi bunday nomaqbul holat hech qachon yashovchan bo'lmaydi. CHunki odamlar o'z sha'ni, his-tuyg'usi va oriyatiga aylanib ketgan g'oyalarga qarshi turgan g'oyani mutlaqo qabul qilmaydi. Ular qalbi va ongiga esa mafkurani zo'ravonlik, tazyiq va zulm orqali singdirib bo'lmaydi. Agar mafkura chindan ham zo'ravonlik yo'lini tanlasa, jamiyat taraqqiyotiga to'g'anoq bo'ladi. CHunki hukmron g'oyaning quliga aylangan fuqaro mutelik va tobelik kayfiyati bilan yashaydi. O'zini erkin va ozod his qila olmaydi. Demak o'z imkoniyatlarini, yaratuvchilik iqtidorini, bunyodkorlik iste'dodini to'la namoyon eta olmaydi.

Milliy istiqlool mafkurasining din orqali va dinning keng imkoniyatlaridan foydalangan holda, xalqimizning ma'naviy-ruhiy ehtiyojlariga mos ravishda yo'l tutishi hayot haqiqatidir. Bir yuz o'ttizdan ortiq millat va elat yashayotgan mamlakatimizda turli diniy aqidalar bilan yashayotgan xalqimizning umumiy manfaatlarini birlashtiradigan, yaxlit xonadonimiz

O'zbekiston ravnaqiga xizmat qilishga da'vat qiladigan milliy istiqlol mafkurasi mukammal, sof insonparvar g'oyaga aylanishi kerak.

Milliy uyg'onish, milliy o'zligini anglash kabi ma'naviy – ruhiy inqilobni boshdan kechirayotgan bir paytimizda ko'proq ezgulik tuyg'ularining barq urib shakllanishiga, uning tantana qilishiga ehtiyoj sezyapmiz. Ezgulik va yaxshilikning takomiliga yetishiga esa faqat milliy istiqlol mafkurasi yordam beradi. Ma'naviy-ruhiy quvvat bo'lib xizmat qiladi. Buning uchun esa har birimizning qalbimizda, qonimizda, jonimizda va butun vujudimizda ana shu mafkura immunitetga aylanmog'i, u butun jismu jonimizni qamrab olmog'i lozim.

3.2. Mavzu yuzasidan dars ishlanmasi

MA'RUZA MASHG'ULOTLARINING TA'LIM TEXNOLOGIYASI

mavzu	Taraqqiyot va hozirgi dunyoning mafkuraviy manzarasini o'rga-nishning dolzarb muammolari
--------------	--

Darsni olib borish texnologiyasi

O'quvchilar soni: 25-30 gacha	Vaqt:1 soat.
O'quv mashg'ulotining shakli	Informatsion baxs-munozarali dars
Ma'ruza rejasi	1. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi: geopolitik maqsadlar va mafkuraviy siyosat. 2. Jaxon maydonlarini mafkuraviy bo'lib olishga urinishlar va bu jarayonning asosiy yo'nalishlari. 3. O'zbekistonning diniy ekstremizm va terrorizmni oldini olish va unga qarshi kurash borasida olib borayotgan siyosatining mohiyati
O'quv mashg'ulotining maqsadi: O'quvchilarda Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi: geopolitik maqsadlar va mafkuraviy siyosat, jaxon maydonlarini mafkuraviy bo'lib olishga urinishlar va bu jarayonning asosiy yo'nalishlari, O'zbekistonning diniy ekstremizm va terrorizmni oldini olish va unga qarshi kurash borasida olib borayotgan siyosatining mohiyati to'g'risida tushuncha berish	
pedagogik vazifa:	O'quv faoliyatining natijasi:
1. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi: geopolitik maqsadlar va mafkuraviy siyosat mohiyatini asoslab berish.	O'quvchilar Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi: geopolitik maqsadlar va mafkuraviy siyosat to'g'risida bilimga ega bo'ladilar.

2. O'zbekistonning diniy ekstremizm va terrorizmni oldini olish va unga qarshi kurash borasida olib borayotgan siyosatining mohiyati	O'zbekistonning diniy ekstremizm va terrorizmni oldini olish va unga qarshi kurash borasida olib borayotgan siyosatining mohiyatini tushunib yetadilar.
O'qitish usullari va texnika	Ma'ruza, "piramida" texnikasi, "Tarmoqlash", "FSMU" uslubi
O'qitish vositalari	Kom'pyuter texnologiyasi ("Globallashuv asoslari" fanidan elektron o'quv uslubiy majmua) Slaydlar
O'qitish shakli	Jamoa bo'lib ishlash
O'qitish shart-sharoitlari	Texnik vositalar bilan tahminlangan, o'qitish usullarini qo'llash mumkin bo'lgan o'quv xona.
Monitoring va baholash	Kuzatish, og'zaki nazorat, savol-javobli so'rov, o'quv tophiriq.

Darsning texnologik kartasi

Ish jarayonlari vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1 bosqich. Kirish (10 daqiqa)	1.1. Ma'ruzaning mavzusi, rejasini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va o'quv faoliyat natijalarini tushuntiradi (1-ilova)	Tinglaydi, mavzu nomini yozib oladi
	1.2. Mashg'ulotni o'tkazish shaklini e'lon qiladi	Yozib oladi
2 bosqich. Asosiy jarayon (60 daqiqa)	2.1. Mavzu rejasining birinchi punkti rejasini bo'yicha ma'ruza qiladi (2-ilova) Ma'ruza bo'yicha «Qanday?» usulidan foydalangan holda talabalarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: Geosiyosat asoslari fanining bosh maqsad va vazifalari qanday? (3-ilova)	Yozadi, savolga javob beradi.
	2.2. Mavzu rejasining ikkinchi punkti rejasini bo'yicha ma'ruza qiladi (4-ilova) va "Tarmoqlash" texnologiyasi bo'yicha talabalarga savol bilan murojaat qilinadi.(5-ilova)	
	2.3. Globallashuv asoslari fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligini «Kichik guruhlarda ishlash» orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi. "FSMU" texnikasidan foydalangan holda guruhlariga topshiriqlar beradi. Guruhlarda ishlashga yordam beradi. Qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi. Har bir guruh tophiriqlarini - qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishga yordam beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida ehtibor beradi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi. Fikrlarini tinglab,	Savollarga javob beradilar, erkin bahs-munozara yuritadilar. Guruhlarda ishlaydilar.

	umumlashtiradi.	
3 bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1 Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qilinadi.	Tinglaydilar
	3.2. Talabalarning baholash mezonlarini e'lon qilinadi	Yozib oladi
	3.3. O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar beradi (6-ilova)	Javob yozadi
	3.4 Navbatdagi mashg'ulotda ko'riladigan mavzuni e'lon qiladi va "Aqliy xujum" usulida jadvalga mustaqil ta'limga tayyorgarlik ko'rishlarini so'raydi.	"Insert" usulida jadvalni to'ldiradi.

Taraqqiyot va hozirgi dunyoning mafkuraviy manzarasini o'rganishning dolzarb muammolari

1-ilova

Reja

1. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi: geopolitik maqsadlar va mafkuraviy siyosat.
2. Jaxon maydonlarini mafkuraviy bo'lib olishga urinishlar va bu jarayonning asosiy yo'nalishlari.
3. O'zbekistonning diniy ekstremizm va terrorizmni oldini olish va unga qarshi kurash borasida olib borayotgan siyosatining mohiyati

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarda Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi: geopolitik maqsadlar va mafkuraviy siyosat, jaxon maydonlarini mafkuraviy bo'lib olishga urinishlar va bu jarayonning asosiy yo'nalishlari, O'zbekistonning diniy ekstremizm va terrorizmni oldini olish va unga qarshi kurash borasida olib borayotgan siyosatining mohiyati to'g'risida tushuncha berish

O'quv faoliyatining natijasi: Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi: geopolitik maqsadlar va mafkuraviy siyosat, jaxon maydonlarini mafkuraviy bo'lib olishga urinishlar va bu jarayonning asosiy yo'nalishlari, O'zbekistonning diniy ekstremizm va terrorizmni oldini olish va unga qarshi kurash borasida olib borayotgan siyosatining mohiyati to'g'risida tushunchaga ega bo'lishadi

2-ilova:

Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi: geopolitik maqsadlar va mafkuraviy siyosat. Geosiyosat asoslari fan sifatida XX asr boshlariga kelib paydo bo'ldi. Uning shakllanish jarayoni jahondagi iqtisodiy, siyosiy jarayonlarning keskin rivojlanishi davriga to'g'ri keldi. Nafaqat ilmiy doirada, balki siyosatshunoslar o'rtasida ham «geosiyosat» tushunchasiga nisbatan yagona bir ta'rif yo'q. Mavjud ta'riflar u yoki bu darajada bir-birini to'ldirsada, ma'lum jihatdan bir-biriga qarama-qarshi hamdir. O'z navbatida geosiyosatning ob'ekti va sub'ekti haqida ham turlicha qarashlar bor. Albatta, bildirilgan fikrlarga salbiy munosabat bildirish kerak emas, balki ularga geosiyosat ob'ektining murakkabligi bilan izohlanadi. Umuman olganda geopolitika hukmronlik vositalari va ubilan bog'liq bilimlar mohiyati to'g'risida fan sohasi sifatida izohlanadi. Frantso'z geopolitiki Mishel Fushe ingliz va nemis geosiyosati xususida fikr yuritib jahonda iqtisodiy va siyosiy hukmronlikni

qo'lg'a kiritish ustida kurash natijasidagi ehtiyoj natijasida yo'zaga kelganligini ta'kidlaydi. Uning fikricha geopolitika faqatgina uslub hisoblanmasdan, ayni damda tasavvur va amaliyot ham hisoblanadi. Negaki dastlabki geosiyosatchilar sifatida turli davrlarda turli hukmdorlar maydonga chiqishgan. Geosiyosat asoslarini tasavvur sifatida shu ma'noda e'tirof etiladiki qator geosiyosiy maktablar ilgari surgan nazariy muhokamalar dunyo haqidagi tasavvurlarni in'kos ettirgan, u yoki bu davlatning olibborayotgan siyosatini belgilab bergan. Geosiyosat asoslari metod sifatida ilmiy, pedagogik ahamiyatga ega bo'lgan bilimlar mohiyatini ifoda etgan.


To'g'ri, XX asrning 90-yillarigacha kommunistik mafkura geosiyosatni imperialistik ekspansiyani asoslash uchun geografik dalil va omillardan (mamlakatning hududi, joylashuvi va b.) foydalanuvchi siyosiy kontsepsiya deb, uning asosini irqchilik, malʼtuschiilik, sotsial-darvinizm bilan bog'lab ta'riflash orqali salbiy baholab kelgan. Biroq, keyingi o'n yil ichidagi o'zgarishlar geosiyosatga nisbatan yangicha yondashuvlarni yo'zaga chiqardi va geosiyosat sobiq sovet fani uqtirib kelgan g'oyalarning batamom aksi ekanligini ko'rsatdi.

"Geosiyosat" ("Geosiyosat asoslari") so'zi garchi yunon tilidagi "geo" (er) va "politics" (davlatni boshqarish san'ati) jumlaridan olingan bo'lsada, o'zbek siyosiy lug'atiga nemis tilidagi "geopolitik" so'zidan kirib kelgan desak to'g'ri bo'lar. Qolaversa, bahs etayotganimiz geosiyosat nazariyasi ham avvalo nemis geosiyosiy maktabida tugal shakllanganligi barchaga ma'lum.

3-ilova:

«Qanday» organayzerini to'ldiring

Muhim muammoning yechimini to'lishga yordam beradi va "Qanday?" savoli orqali muammo hal qilinadi.



4-ilova:

Jaxon maydonlarini mafkuraviy bo'lib olishga urinishlar va bu jarayonning asosiy yo'nalishlari.


Hech bir fanni faqat shu fanni o'rganish asosida egallash mumkin emas. Globallashuv asoslari fani barcha fanlar, xususan, falsafa, tarix, iqtisod, dinshunoslik, sotsiologiya, 'sixologiya, ma'naviyat asoslari, madaniyatshunoslik, huquqshunoslik va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq. Dinshunoslik fani yordamida jahonning diniy manzarasi qanday, unda qaysi din yoki konfessiyaning tutgan o'rni, diniy aqida'arastlik, islom xalifaligini tiklash kabi buzg'unchi g'oyalarning mazmun- mohiyat'ini anglash, ogoh bo'lish tuyg'usini shakllantirishga yordam beradi. Siyosatshunoslik fani yordamida hozirgi zamonning mafkuraviy manzarasi, globallashuv jarayonlari, mintqa va mamlakatimizda xavfsizlikni saqlash va boshqalarga ehtiborni qaratamiz.

5-ilova:

2-o'quv tophiriq

“Tarmoqlash” usulidan foydalanib, javob to'ing

Muhim muammoning yechimini to'ishga yordam beradi va “Tarmoqlash” usuli orqali muammo hal qilinadi.



6-ilova:

Jonlantirish uchun savollar:

1. «Geosiyosat asoslari» tushunchasi, predmeti, ob'ekti va manbalari.
2. Dunyoning mafkuraviy manzarasi deganda nimani tushunasiz?.
3. Dunyoni mafkuraviy jihatdan bo'lib olishga urinishlar qanday kechmoqda?.
4. Geopolitik maqsad nima?
5. O'zbekistonning geosiyosiy imkoniyatlari qanday?

XULOSA

Yuqorida aytib o'tilganidek bugungi kunda umumiy xavfsizlikni ta'minlash va muvozanatga erishish manfaatlari nuqtai nazaridan, yangi mustaqil davlatlarning xavfsizligi va barqaror rivojlanish muammolari ulkan ahamiyat kasb etmoqda. Yer yuzida vaziyat va kuchlar nisbati shiddatli o'zgarib bormoqda. Yangi mustaqil davlatlar maydonga chiqmoqda. Bu esa hozirgi kunda davlatlar va xalqlarning barqarorligini ta'minlash uchun yangicha yondashuvlarni izlab topishni, XXI asr arafasida xavfsizlikning yangicha modellarini ishlab chiqishni tobora qattiq talab qilmoqda.

Yaqin tarixning mantiqi bizni hozirgi kunda uchta asosiy savolga murojaat qilishga undamoqda va bu muammolar shu kunning dolzarb masalalariga aylangan. Xavfsizlikni qanday saqlab qolish lozim? Barqarorlikni qanday ta'minlash darkor? Taraqqiyot yo'lidani sobitqadam rivojlanishga nimalar hisobiga erishish mumkin? Dunyoda g'oyaviy qarama-qarshilik avj olayotgan bir paytda xavfdan qanday xoli bo'lish mumkin? Rivojlanish uchun kuch-madadni qaerdan izlash lozim? Bular strategik muammolar bo'lib, har qanday mustaqil davlat, eng avvalo ana shu muammolarga e'tibor berib kelgan va bundan buyon ham e'tibor berajak. Mamlakatimiz kelajagi, mintaqadagi istiqbol ko'p jihatdan ushbu masalalarning yechimiga bog'liq.

Bugun O'zbekiston - faqat juda boy tabiiy-xom ashyo zaxiralari, cheksiz bozor va sarmoya sarflanadigan soha. SHunday ekan jahondagi geosiyosiy kuchlar kuchlar nisbati ko'p jihatdan Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar qaysi yo'ldan borishlariga bog'liq. Hozir xalqaro munosabatlarning sifat jihatidan yangicha tartibini shakllantirish jarayonida ishtirok etayotganlar buni e'tirof etmasliklari mumkin emas. Hech shubha yo'qki, bu davlatlarning tanlab olgan yo'li islom dunyosida yuz berayotgan murakkab jarayonlarning rivojlanishi qanday natijalarga olib kelishiga va umuman jahon hamjamiyati uchun kelib chiqadigan barcha oqibatlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ana shuni tushunish O'zbekiston Respublikasining va butun Markaziy Osiyoning XXI asr bo'sag'asidagi taqdiri va rivojlanish istiqbollari haqida yuritilayotgan hamma fikr-mulohazalarning tayanch nuqtasi bo'lib qolishi kerak. Bunday farazlar va tahliliy materiallarning har qaysisi, albatta, hurmat bilan munosabatda bo'lishga sazovor. Bir narsa ravshanki, barqarorlik va jo'g'rofiy-siyosiy muvozanat saqlanib qolgan sharoitdagina bu mintaqa jo'shqin va sobitqadam rivojlanadi, jahon hamjamiyati uchun munosib sherik bo'la oladi. Markaziy Osiyo mintaqasida turli siyosiy, iqtisodiy, harbiy, transportga va ekologiyaga oid muammolar to'planib qolgan. SHuni nazarda tutadigan bo'lsak, butun mintaqaning sobitqadam va barqaror rivojlanishini ta'minlash hamda mojaroli vaziyatlarning oldini olish uchun hozirgi kunda ichki va tashqi muvozanatni saqlash va qo'llab-quvvatlashgina birdan-bir maqbul tamoyildir. Mintaqada jo'g'rofiy-siyosiy muvozanatni va barqarorlikni saqlagan taqdirdagina mazkur muammolarni hal etish imkoni tug'iladi.

Ta'lim-tarbiya davomida quyidagi vazifalarga keng e'tiborni qaratish lozim:

1. Talabalarda dinning hayotbaxsh ta'siri, tarbiyalovchi kuchiga mustahkam e'tiqodni qaror toptirish.
2. Dindan siyosiy va o'z maqsadlarida foydalanishga nisbatan murosasiz bo'lishni tarbiyalash.
3. Din va diniy tashkilotlarga nisbatan qadriyatli munosabatni tarkib toptirish.
4. Yoshlar orasida aqidaparastlik g'oyalarining tarqalishini oldini olish.
5. Islom dini niqobida aqidaparastlikni targ'ib qilayotganlarga nisbatan yoshlarni g'oyaviy tayyorlash.
6. Talabalarning ijti-moiy faolligini oshirish, g'oyaviy kurash-chanligini yuksaltirish hamda bu boradagi ishlar samaradorligini ta'minlash uchun har bir talaba bilan indiviual tarbiyani yo'lga qo'yish
7. Talabalarda islomiy tsivilizatsiyaning rivojlanishida buyuk ajdodlarimizning qo'shgan his-salari haqidagi bilimlarni kengaytirish.
8. Talabalarni ota-bobolarimiz dini bo'lgan islom dini ruhida iymonli, diyonatli, ma'rifatli qilib tarbiyalashga erishish va boshqalar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2003.
2. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida (yangi tahriri)». O'zbekiston Respublikasining – T.: Adolat, 1998.
3. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. –T.: O'zbekiston, 1996.
4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. –T.: O'zbekiston, 1996.

5. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. 4-jild. –T.: O'zbekiston, 1996.
6. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5-jild. – T.: O'zbekiston, 1997.
7. Karimov I.A. Havfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lidan. 6-jild. –T.: O'zbekiston, 1998.
8. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. –T.: O'zbekiston, 1999.
9. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild. – T.: O'zbekiston, 2000.
10. Karimov I.A. Havfsizlik va tinchlik uchun kurashamiz. 10-jild. –T.: O'zbekiston, 2002.
11. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11-jild. –T.: O'zbekiston, 2003.
12. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. –T.:«Ma'naviyat», 2008.
13. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz vazifamiz- vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: «O'zbekiston»- 2010.
14. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. Toshkent Islom Universiteti - 2005y.
15. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: O'zbekiston. 2011.
16. Husanov S., Jumanioyozov X., Mirjavxarova D. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. TKTI – 2005y.
17. Abdullatif qori Hoshimjon qori o'g'li. Zalolatga ketmang! Hizbut tahrir fitnasidan ogoh bo'ling. – T.: -Movarounnahr, 2003.
18. Azimov A. Religioznyy ekstremizm i fundamentalizm. –T., 1998.
19. Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi. –T.: 2002.
20. Bahramov A. Islom va ma'rifat. –T.: Movarounnahr, 2002.
21. Bjezinskiy Z. Velikaya shaxmatnaya doska. –M.: 1999.
22. Juzjoniy A.SH. Islom huquqshunosligi. –T.: Toshkent islom universiteti, 2002.
23. Zakurlaev A. G'oyalar kurashi. – T. Movarounnahr, 2000
24. Inson huquqlari: Universal xalqaro hujjatlar to'plami. – T.: 1996.
25. Inson huquqlari to'g'risida xalqaro bill. –T.: Adolat, 1992.
26. Islom: bag'rikenglik va mutaassiblik. –T.: Universitet, 1998.
27. Islom va dunyoviy davlat (xalqaro ilmiy-nazariy konferentsiya materiallari). – T.: 2003.
28. Islom. Entsiklopediya. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004.
29. Karimov I. Imon va inson. –T.: 1991.
30. Kojushko Ye. Sovremennyy terrorizm: Analiz osnovnykh napravleniy. –Mn.: Xarvest, 2000.
31. Komilov N. Islom – ma'rifat dini. –T.: Ma'naviyat, 2000.

32. Mejreligioznoe soglasie – vajnoe uslovie uglubleniya demokraticeskix protsessov v stranax Tsentral'noy Azii (Na primere Respubliki Uzbekistan). Materialy mejdunarodnoy konferentsii. – T.: 2002.
33. Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik – taraqqiyot omili. – T.: 2003.
34. Obidov R., Abdullaev S., Azimov A. Hidoyat va zalolat. –T.: 2003.
35. Otamuratov S., Mamashakirov S., Xolbekov A. Markaziy Osiyo: g'oyaviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar. –T.: 2001.
36. Pravovoe gosudarstvo – nezavisimost', natsiya, ekonomika, ideologiya, politika. V 4-x tomax. –E.: Adolat, 1994.
37. Radjapova M. Diniy ekstremizm va terrorchilik. – T.: 2000.
38. Raxmanov A. Islamskoe pravo. Uchebnik dlya vuzov. – T.: 2003.
39. Raxmatov A. Bditel'nost' – svyashchennyy dolg. –T.: Uzbekistan, 2000.
40. Saidov A.X. Religioznaya tolerantnost' i svetskoe gosudarstvo v Uzbekistane. –T.: 2002.
41. Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha shartnomalar. –T.: Adolat, 2004.
42. Salimov K.N. Sovremennye problemy terrorizma. –M.: 1999.
43. Taroziy A.M. Olam uzra tarqalgan islom. –T.: 2001.
44. Xantington S. Stolknovenie tsivilizatsiy? // Polis, №1, 1994.
45. Xusanov S.X., Mirjavxarova D.S. Dinshunoslik (o'quv-uslubiy qo'llanma). – T.: 2004.
46. Xorun Yahyo. Islom terrorni qoralaydi. T.: -Movarounnahr, 2003.
47. Ekstremizm, terrorizm, guruhij jinoyatchilikka qarshi kurash muammolari. // Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. –T.: 1999.
48. Yakubov O. Qashqirlar galasi: Terrorizmning qonli izi. – T.: 2000.
49. Yunusova A.T. Religiya i zakon. – T.: Toshkent islom universiteti, 2002.
50. Husniddinov Z. Islom: yo'nalishlar, mazuhablar, oqimlar. – T.: Movarounnahr, 2000.
51. Husniddinov Z.M., Abdusattorov A. Islomdagi oqimlar: xorijiylar va shialik. T.: Toshkent islom universiteti, 2003.